Zamonaviy matematikadan o'tuvchi g'oyalardan biri bo'lib quyidagilar hisoblanadi. Qandaydir matematik obyektlar sinfini tushunish uchun yana ushbu obyektlar orasida akslantirishlarni va asosan ayrim o'rganilayotgan obyektlarning xususiyatlarini o'rganish ham zarur. Masalan chiziqli algebra vektorli fazoni o'rganadi hamda chiziqli akslantirish xossalarini ya'ni shunday akslantirishlarki ularda vektorlarni qo'shish va skalyar ko'paytirish amallari saqlansin.

Biz ko'pxilliklarda akslantirishni qaraymiz, natijada algebra va geometriya bo'limning yangi "lug'atini" olamiz. Polinomial (ko'phadli) va ratsional funksiyalarning algebraik xususiyatlari bo'lib ko'pxilliklarda uning o'zini geometrik xususiyatlari hisoblanadi. Bular faktor xalqa nazariyasiga kirish bo'lib hisoblanadi.

Ko'pxilliklarda akslantirishlarni o'rganishda quyidagi misolni qarashdan boshlaymiz.  $\mathbf{R}^3$  da kubni aylanishidan xosil bo'lgan sirtga urinma quyidagi parametrik ko'rinishda beriladi:

$$\begin{aligned} x &= t + u, \\ y &= t^2 + 2tu, \end{aligned} \tag{4}$$

$$z = t^3 + 3t^2u,$$

funksiyalarni parametrlash sinifida (2.1) quyidagi akslantirish

$$\phi: \mathbf{R}^2 - \mathbf{R}^3$$

formula bilan beriladi

$$\phi(t, u) = (t + u, t^2 + 2tu, t^3 + 3t^2u).$$

Bu akslantirishning aniqlanish sohasi  $V = \mathbf{R}^2$  affin ko'pxillikdir, uning obrazi esa  $S$ -sirtga urinmadir.

$S$  —sirt xam affin ko'pxillik bo'lib,





$$W = V(x^3z - \frac{3}{4}x^2y^2 - \frac{3}{2}xyz + y^3 + \frac{1}{4}z^2)$$

kabi bo'ladi. Shunday qilib parametrlashlarimiz  $V$  ni  $W$  ga akslantirishni polinomial deymiz. Polinomial so'zi bu yerda  $\phi$  akslantirishning  $t$  va  $u$  komponentlari ko'phadlardir.

Endi ushbu akslantirish

$$\pi_l: C^n \rightarrow C^{n-1},$$

formula bilan ifodalansin

$$\pi_l(a_1, \dots, a_n) = (a_{l+1}, \dots, a_n).$$

Agar biz  $V=V(I) \subset C^n$  dagi ko'pxillik bo'sin, unda  $\pi_j$  ni  $V$  da chegaralaymiz. Bundan  $\pi_j(V) = W = V(I_j)$  affin ko'pxillikga tegishlili bo'lib, bu yerda  $I_L = I \cap C[x_{l+1}, \dots, x_n]$  Shunday qilib biz  $\pi_j$  — ni polinomial akslantirish deb qarashimiz mumkin. Bu holda  $\pi_j$  - akslantirishda uning komponentlarini ko'phadlardir iborat deb qaraymiz.

Ko'pxilliklarda ratsional funksiyalarni va ularga oid akslantirishlarni qaralib, natijada algebra va geometriya bo'limning polinomial va ratsional funksiyalarning algebraik xususiyatlari va ko'pxilliklar va ularning o'zini geometrik xususiyatlari o'rganildi. Shuningdek, polinomial funksiyalarning to'plamini har qanday  $\phi$ ,  $\phi \in k[V]$  funksiyalarning yig'indisi va ko'paytmalarini aniqlash va polinomial akslantirishlari o'rganilga va polinomial xalqalar faktor xalqasi va ularning ta'rif va tushunchalari haqida ma'lumotlar berilgan. Ko'pxilliklarda ratsionallar funksiyalar va aksantirishlar va ularga doir ba'zi misollar bajarildi. Mazkur maqola ishida mavzuni mutaxasizlik nuqtai nazardan keng qamrovli o'rganib chiqilganidan dalolat beradi

#### Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kremer N.Sh., Putko B.A. Ekonometrika: Uchebnik. – M.: YUNITIDANA, 2008. – 328 s.
2. Nasritdinov G., Ekonometrika 1. O'quv qo'llanma. –Toshkent: Iqtisod- Moliya, 2008. – 252 b.
3. B.Ashurov, S.Xudoyberdiyev, O.Tog'ayev. Tenglamalar tizimi ko'rinishidagi ekonometrik modellar. Uslubiy ko'rsatma va topshiriqlar. 2019
4. S.T.Choriyeva. O'quv-qo'llanma. Soha ichida buziladigan singulyar koeffitsiyentli giperbolik va aralash tipdagi tenglamalar uchun bitsadze-samarskiy masalasi. 2021.



## INSON HAYOTIDA UYQUNING AHAMIYATI

*Goziyeva Umida Abduvosyeevna*

Ishlab charchagan odam kuch to'plashi, normal hayot faoliyatini davom ettirishi uchun uxlab dam olishi lozim. Uyqu ham insonga kuch quvvat bo'ladi. Agar kishi uyqusiz bir necha kun yursa u toliqadi, kuchli charchash kuzatiladi. To'yib uxlab dam olgan kishi kun davomida yaxshi ishlaydi. Masalan bolalar ham kam uxlab uyquga to'ymasa injiq bo'lib yig'loqi bo'lib qoladi. Ayrim chaqaloqlarni uyqusi almashinib qolib kechasi uyg'oq bo'ladi, kunduzi uxlaydi. Keyinchalik bola katta bo'lishi bilan yana uyqusi o'z o'rniga tushib ketadi. Katta yoshli insonlar ham uyquni qadriga yetishi kerak hadeb ish tashvishlari ro'zg'or deb farzandlar deb tinim bilmay ishlaydi. Shunday qilib kishi sog'lig'ini ham yo'qotib quyadi. Ayrim odamlar pulni ortidan quvib yuk tashuvchi haydovchilar, kira qiluvchi taksi haydovchilari, tadbirkorlar va boshqa kasb egalari ish yumushlar ketidan qolmasdan dam olishni uyquni unutib quyadi. Natijada yo'lda keta turib ko'zi ochiq bo'lsa ham bosh miya tormozlanadi ya'ni uyquga o'tib ketadi. Shu vaqtda noxush avtohalokatlar sodir bo'ladi. Har qanday kishi yo'lga uzoq safarga chiqadigan bo'lsa ayniqsa haydovchilar tuyib uxlab dam olganda bexavotir manzilga yetib oladi.

**Uyqu** - organizmning atrof-muhitga reaksiya sining pasayishi bilan bog'liq tabiiy fiziologik holat. Uyqu - siklli hodisa. Odatdagi 7-8 soatli uyqu 4-5 sikldan iborat. Uyquning har bir sikli esa sekin va tez uyqu bosqichlaridan iborat. Odam uyqusi **sekin uyqu** fazasidan boshlanadi. Bu fazada nafas olish, tomir urishi, ko'z harakati sekinlashadi, moddalar almashinuvi va tana harorati pasayadi, muskullar bo'shashadi. **Tez uyqu** uxlagandan 1—1,5 soat keyin boshlanib, 10-15 minut davom etadi, keyin yana sekin uyqu bilan almashinadi. Tez uyqu fazasida odam tez-tez va chuqur nafas ola boshlaydi, ichki organlar faoliyati kuchayadi, ayrim muskullar qisqarishi tufayli ko'z, qo'l va oyoqlar harakatga keladi. Odam tush ko'ra boshlaydi va ko'zlari xuddi film ko'rayotgandek harakatlanib turadi. Tez uyquda odam fantaziyaga boy tush ko'radi.

Uyqu bosh miya katta yarimsharlari po'stloq qismidagi nerv markazlarining tormozlanishi natijasida hosil boladigan fiziologik holatdir. Uyqu vaqtida analizatorlarning faoliyati pasayadi yoki butunlay yo'qoladi, ya'ni ko'rish, eshitish, hid va ta'm bilish, harakatlanish, terining issiq-sovuqni, siypalashni, kuchsiz og'riqni sezish xususiyatlari deyarli yo'qoladi. Uxlagan odamda oliy nerv faoliyatiga xos bo'lgan fikrlash, ong, tashqi muhitdagi voqealarni, o'zgarishlarni sezish, ular to'g'risida xulosa qilish qobiliyati deyarli yo'qoladi. Shartli reflekslar hosil bo'lmaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, uyqu vaqtida markaziy nerv sistemasining quyi qismlari, ya'ni orqa miya, uzunchoq, o'rta, oraliq miyadagi markazlarning ish faoliyati butunlay yo'qolmaydi. Ma'lum darajada pasayadi, chunki bu markazlar odamning hayotini ta'minlaydigan organlar (yurak-qon tomir, nafas olish tizimi,



buyrak, endokrin sistemasi kabilar) ishini boshqaradi. Shuning uchun uyqu vaqtida bu organlarning ishi pasayadi, xolos. Odamda uyquning quyidagi turlari bo'lishi mumkin: tabiiy fiziologik uyqu, gipnotik, narkotik uyqu va uyqu kasalliklari. *Tabiiy fiziologik uyqu* har kungi tundagi normal uyqudir. Odam organizmining tabiiy fiziologik uyquga ehtiyoji yoshga qarab turlicha bo'ladi. Chaqaloqlarda bir kecha-kunduzda 21—22 soat, 1 yoshli bolada 16—17 soat, 6—7 yoshda 12—13 soat, 13—14 yoshda 9,5—10 soat, kattalarda — 8 soat. *Gipnotik uyqu* boshqa odam yoki gipnozchining har xil so'zlari va harakatlari ta'sirida yuzaga keladi. Bunda gipnozlangan odamning bosh miya yarimsharlarining po'stloq qismidagi nerv markazlarining hammasi emas, balki ma'lum qismi tormozlanadi. Gipnozlash usuli ba'zi ruhiy kasalliklarni davolashda qo'llaniladi *Narkotik uyqu* har xil kimyoviy dori moddalarini ta'sirida bosh miya nerv hujayralarida tormozlanish holati yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Uyqu kasalliklariga: oyparast (lunatik), letargiya uyqusi va uyqusizlik kiradi. *Oyparast kasalligida* odam tungi uyqu vaqtida kechasi o'midan turib uydagi buyumlarni yig'ishtiradi, o'rnini o'zgartiradi, derazani ochadi, hovliga chiqadi, ba'zilar esa devorga chiqadi, hatto ko'chaga chiqib ketib, yana qaytib kelib o'miga yotadi va uyquni davom ettiradi. Ertasi kuni hech narsani eslay olmaydi. *Letargiya uyqusi* — bu kasallik holati bo'lib, odamda to'satdan yuzaga keladi. Odam chuqur uyquga ketadi. Uning nafas olishi va yurak urishi sekinlashib, hatto sezilmaydigan darajada boladi Bu holat nerv sistemasining o'ta qo'zg'aluvchanligi va tormozlanish, o'ta charchash, bosh miyaning shikastlanishi, kuchli hayajonlanish, qattiq qo'rqish va chuqur qayg'u bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Odam hech narsani, hatto og'riqni ham sezmaydi. Letargik uyqu bir necha soat, kun, hafta, oy va hatto yillar davom etishi mumkin. Uyg'onish ham xuddi uyquga ketish singari to'satdan sodir bo'ladi.

**Uyqusizlik** — tungi uyquning buzilishi, ya'ni uzoq vaqt uxlay olmaslik, bevaqt uyg'onish, tun davomida tez-tez uyg'onish va nihoyat, tungi uyquning butunlay yo'qolishi. Uyqusizlik og'ir psixik kasallikka olib keladi Buning sabablari: bosh miyaning shikastlanishi oqibatlarini, aqliy mehnatdan zo'riqish tufayli sodir boladigan nevroz kasalligi, nerv sistemasining kimyoviy moddalar (spirtli ichimliklar, nikotin, dori moddalar va boshqalar) bilan zaharlanishi, o'ta hayajonlanish, iztirob chekish, uzoq muddat davomida kun tartibining buzilishi kabilar. Uyqusizlikning oldini olish uchun avvalo odam kun tartibiga rioya qilishi kerak. *Tush ko'rish* — uyquda sodir boladigan subyektiv-psixik hodisa. Chuqur uyqu vaqtida bosh miya po'stloq qismining nerv hujayralari butunlay tormozlanadi va bunda tush ko'rilmaydi. Uyqu yuzaki bo'lganida bosh miya po'stlog'ining ayrim qismlaridagi, ayniqsa, ensa qismidagi ko'rish markazining nerv hujayralari to'liq tormozlanmaydi, ya'ni ularning ba'zilarini kuchsiz qo'zg'alish holatida bo'ladi. Ana shu vaqtda tush ko'rish sodir bo'ladi. Ayrim hollarda odamning tushiga hech qachon ko'rmagan, eshitmagan, o'ylamagan hodisalar kiradi. Buning sababi



shundaki, odam o'z hayotida hamma ko'rgan-kechirgan voqealarni, o'z istak va intilishlarini eslab qola olmaydi, lekin ular bosh miya hujayralarida iz qoldiradi.

Bu izlar uyqu vaqtida tiklanib tushga kiradi. Ishlab charchagan odam kuch to'plashi, normal hayot faoliyatini davom ettirishi uchun uxlab dam olishi lozim. Odam hayotining uchdan bir qismi uyquda o'tadi.. Tajribada it ovqatsiz 20-25 kun, uyqusiz 10-12 kun yashagan. I.M. Sechenov fikricha, «Tush ko'rish - mantiqli taassurotlarning mantiqsiz kombinatsiyasidan iborat». Odam sekin uyquda ham tush ko'radi. Lekin uning tushi kam hissiyotli, mantiqli va fikrlash shaklida bo'ladi. Uyqu va uyg'oqlik bosh miya sopidagi bir guruh neyronlar bilan bog'liq. Neyronlar uyquda harakatlarning tormozlanishini ta'minlaydi. Tajribada bu neyronlar qitiqlanganida tez uyqudagi hayvon boshini ko'tarib, ko'rinmaydigan narsa orqasidan keta boshlagan, ya'ni hayvon tushida ko'rayotgan voqeani takrorlagan. Uyg'oqlikni boshqaradigan nerv hujayralariga ta'sir qilinganida uxlayotgan hayvon uyg'onib, hushyor tortadi. Fiziologik jihatdan uyqu nerv hujayralarini toliqishdan saqlaydigan chuqur himoya tormozlanishidan iborat. Uyqu miya yarimsharlari po'stlog'i va oraliq miyadagi nerv markazlarini tormozlaydi. Faqat nafas olish, yurak urishi kabi hayot uchun muhim bo'lgan organlarning ishini boshqaradigan uzunchoq miyadagi nerv markazlari ishlab turadi. Uyquning buzilishi uyquchanlik va uyqusizlikdan iborat. **Uyquchanlik** ko'pincha og'ir yuqumli kasalliklardan keyin, kamqonlik va bosh miya kasalliklarida kuzatiladi. **Uyqusizlik** kam harakatlanish, organizmning jismoniy toliqmaganligi bilan bog'liq. Televideniye, radio, kino, video axborotdan ko'proq foydalanishga intilish ham nerv sistemasini toliqtirib, uyquni buzadi, Uyqu yaxshi bo'lishi uchun organizmning sutkalik maromini buzmaslik, jismoniy va aqliy og'ir ishlarni ertalab va kunduzi bajarish, kechqurim uxlashdan oldin ko'p ovqatlanmaslik, ochiq havoda biroz sayr qilish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Biologiya darslik O. Mavlonov T. Tilavov B. Aminov Tosh 2019y
2. Abu Ali Ibn Sino nomidagi Tibbiyot nashriyoti 2001y
3. Uz ziyonet



## TARBIYASI OG'IR O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

---

*Yusupova Shodiya Avaz qizi*  
*Toshkent shaxar Yakkasaroy tumani*  
*127- o'rta ta'lim maktabi psixologi*

**Annotatsiya:** Maqolada shaxs fazilatlarini tarkib topishdagi nuqsonlarni oldini olish pedagogik muammo to'g'risida fikr yuritilib, yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim tarbiya ishlari samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish haqida taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim-tarbiya, psixologik xususiyat, intellektual, ko'nikma, malaka, ijtimoiy, individual, ehtiyoj, psixik taraqqiyot, pedagogik ta'lim, psixik rivojlanish, aqliy faoliyat usullari, maktab faoliyati, o'smirlarning tipologik xususiyati, o'smirlik davri, psixologik sifat.

### KIRISH

Yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini bilish hamda hisobga olishga bog'liqdir. Bu holat burilish hisoblangan o'smirlik davrining alohida xususiyati bo'lib, u ko'prok shu davrga taaluqlidir. O'smirlik davrini – o'tish davri deb yuritadilar, chunki ana shu davrda bolalikdan kattalik holatiga o'ziga xos o'tish davri yuzaga keladi. U psixik jarayonlarning, o'quvchi faoliyatlarining jiddiy ravishda qayta qurilishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun o'smirlik yoshi o'zaro munosabat shakllarida, faoliyatni tashkil qilishda qat'iy o'zgarishlarni talab qiladi. O'smirlarni ta'lim-tarbiya berish ishlarida goho uchraydigan qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi qonuniyatlarini va xususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslik yoki inkor etish natijasida paydo bo'ladi. Bu davr tarbiya uchun ancha qiyin davr hisoblanadi. Chunki bolaning ulg'ayib, katta odamga aylanish jarayonining o'zi qiyin, bu jarayon psixikaning, odamlar bilan bo'lgan munosabat shakllarining jiddiy ravishda qayta o'zgarishi hamda hayot sharoiti va faoliyatining o'zgarishi bilan bog'liqdir. O'smirlarga ta'lim-tarbiya berishdagi qiyinchiliklar shundan iboratki, bunda o'smir bilan bo'ladigan munosabatlarda uning hayoti va faoliyatini nazorat qilish shakllarini o'zgartirish muhimdir. Ularga ta'sir qilishning qandaydir yangi usullari va vositalarini topish lozim bo'ladi. Bunda albatta, har bir yosh bilan alohida munosabatda bo'lish maqsadga muvofiqdir.



O'smirlarning psixik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlar ularning faoliyatlari tug'dirgan yangi ehtiyojlar bilan bu ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir; bu qarama-qarshiliklar o'smirlarning ortib borayotgan jismoniy, intellektual va axloqiy imkoniyatlari bilan ularning eski, ilgari tarkib topgan olam bilan o'zaro munosabat shakllari, ular faoliyatining eski qarama-qarshiliklar, jamiyat, kattalar va jamoa tomonidan o'smirlarga nisbatan ortib borayotgan talablar bilan o'smirlar real xatti-harakatlarning shakllari o'rtasidagi qarama-qarshiliklardir. Bu qarama-qarshiliklar ancha yuksak darajadagi psixik taraqqiyotni, ancha murakkab shakldagi faoliyat turlarini va shaxsning qator yangi psixologik sifatlarini tarkib toptirish orqali bartaraf qilinadi. Buning natijasida o'smirlarning psixik taraqqiyotining yanada yuksakroq bosqichga o'tishi amalga oshiriladi.

Tarbiyasi qiyin, injiq, xulqi salbiy bolalarning kelib chiqishi ijtimoiy sabablaridan tashqari pedagogik va psixologik sabablari ham mavjud. Yoshlarda nojo'ya xatti-harakatlar paydo bo'lishining sabablari va turtkilari har xildir. Qonunni buzishni yoki qoidaga xilof ish qilishi darajasiga qarab tarbiyasi qiyin o'smirlar jinoiy qonunbuzar va oddiy qoida buzar guruhlarga ajratiladi.

Shaxsning fazilatlari tarkib topishidagi nuqsonlar: a) axloqiy hislarning yetishmasligi;

b) o'qituvchi, sinf jamoasi, oila a'zolari bilan noto'g'ri muloqot;

v) ishyoqmaslik;

g) bo'sh vaqtni to'g'ri taqsimlay bilmaslik va boshqalar salbiy holatlarni vujudga

keltiradi.

Shuningdek, shaxsning o'quv faoliyatidagi kamchiliklari:

1) aqliy faoliyat usullaridan keng foydalana bilmaslik;

2) bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdagi uzilishlar;

3) maktab faoliyatidagi tarbiyaviy yo'nalishdagi kamchiliklar;

4) o'qitishdagi nuqsonlar ham shular jumlamasiga kiradi.

O'smirlarning tipologik xususiyatlariga qarab ularni bir necha shartli guruhlarga ajratish mumkin.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarning birinchi guruhi orsizlar yoki subutsizlar deyiladi. Bular o'z xatolarini bilib turib qonun va qoidalarni buzadilar, noma'qul ishlarni qiladilar. O'zlarining gunohkor ekanliklarini tan olmaydilar. Lekin yutuqlarini e'tirof qilishini xohlaydilar. Shaxsiy fikrlarini boshqa kishilarga



ma'qullashini va o'z talablarini o'zgaralar so'zsiz bajarishini juda yoqtiradilar. Ular betga chopar, o'jar, rahm-shafqatsiz, «zo'ravon» bo'ladilar.

Mustaqil fikrga ega bo'lmagan tengdoshlarini o'z atroflariga to'playdilar va birgalikda tartib buzishga undaydilar.

Ikkinchi guruhga mansub tarbiyasi qiyin o'smirlar yaxshi va yomonni tushunadiganlar, biroq mustaqil e'tiqodga, barqaror yuksak his-tuyg'uga ega emasliklari sababli «orqa qanot»da turib qoidani buzadilar. Ularning xatti-harakatlari tasodifiy voqelikka, ta'sir kuchiga va vaziyat xususiyatiga bog'likdir. Ular tashviqotga tez beriladiganlar, barcha narsalarga ishonadilar, qaysi yo'lga kirib qolganliklarini anglab yetadilar, biroq «kompaniya» fikriga qarshi borishga botina olmay ko'ngilsiz ishlarga qo'l uradilar. Ko'pincha tartibbuzarlar qilmishlariga tavba qilib, sinf jamoasi a'zolarini ishontiradilar, lekin ma'lum fursat o'tgandan so'ng bergan va'dalarini butunlay unutadilar.

Uchinchi guruhga mansub tarbiyasi qiyin o'smirlar shaxsiyatparastlik tufayli qonunbuzarlik, tartibbuzarlik yo'lga kirib qoladilar. Ular shaxsiy talablari va ehtiyojlarini qondirish uchun har qanday nojo'ya xatti-harakatlardan qaytmaydilar, odamlarga yaxshilik qilishni orzulaydilar. Biroq o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ijtimoiy manfaatdan yuqori qo'yadilar. O'zlarining xoxishlarini taqiqlangan usullar bilan amalga oshiradilar, so'ng qilmishlariga afsus-nadomad chekadilar, ruhan eziladilar. Lekin mazkur kechinmalarni tez unutadilar.

Ularning shaxsiy ehtiyojlari har qanday yuksak hislardan, xoxishlardan ustun turadi. Axloqqa xilof xatti-harakatlar achinish hissi tarzida namoyon bo'ladi.

Injiq tabiatli qiyin tarbiyalanuvchilar jamoa va guruhlarda o'z o'rinlarini topa olmaydilar, ular arazchan, ginaxon bo'lib o'z guruh va jamoalariga qo'shilib ketavermaydilar, tortinib o'zlarini kamsitilgandek his qiladilar. Ular ham qiyin tarbiyalanuvchi yoshlarning bir turidir. Jamoa o'rtasida obro' qozonishni, hurmatga sazovor bo'lishni juda xohlaydilar. Lekin ulardagi tushkunlik kayfiyati, umidsizlik, o'z imkoniyati, aqliy quvvatga ishonchsizlik bunga imkon bermaydi. Ular maktab, sinf jamoasining qoida va qonunlarini buzishga harakat qilmasalar ham, lekin bu jamoaning ish faoliyati va muvaffaqiyatida, ta'lim-tarbiya jarayonida yetarlicha qiyinchiliklarning paydo bo'lishiga salbiy ta'sir ko'rsatadilar, jamoa ishini orqaga suradilar va jamoa ko'zlagan maqsadni amalga oshirishda qiyinchilik tug'diradilar.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarni keltirib chiqaruvchi sabablar majmuasiga quyidagilar kiradi.

1. Bola rivojlanishidagi biologik nuqsonlar:

a) sezgi organlaridagi kamchiliklar;



b) o'qishga salbiy ta'sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperament xususiyatlarining mavjudligi;

2. Shaxsning psixik kamolotidagi kamchiliklar:

a) aqlning bo'sh rivojlanligi;

b) irodaning zaifligi;

v) hissiyotning kam rivojlanganligi;

g) zarur ehtiyoj va bilishga qiziqishlar mavjud emasligi;

d) o'smirdagi intilish bilan imkoniyatlarning nomutanosibligi.

2. Bola tarbiyasidagi nuqsonlar:

a) axloqiy xislatlarida uchraydigan kamchiliklar;

b) o'smirning o'qituvchi, sinf jamoasi va oila a'zolari bilan muloqotidagi zaifliklar;

v) mehnat tarbiyasidagi nuqsonlar;

g) bo'sh vaqtni taqsimlashdagi xatoliklar;

d) ijtimoiy muhit, oilaviy sharoitdagi ta'lim-tarbiyadagi nuqsonlar.

1. Bolaning bilim olish faoliyatidagi kamchiliklari:

a) bilimlar, maxsus ko'nikmalar va malakalarni egallashdagi o'zgarishlar;

b) ta'lim jarayonida aqliy mehnat usullari va operatsiyalarning yetishmasligi.

2. Maktab ta'limi va tarbiyasidagi kamchiliklar:

a) ta'lim jarayonida bilimlari va xatti-harakatlarini adolatsiz baholash, darslik va o'quv qo'llanmalariga nisbatan anglashilmovchiliklar, sinfda qoldirish va h.z.

b) maktab tarbiyaviy ishlaridagi kamchiliklar (o'qituvchining o'smirga xayrixoh emasligi, o'quvchining yakkalanishi, o'qituvchilar va o'quvchilar jamoasidagi nuqsonlar, pedagogik qarovsizlik, o'z o'rnini topa olmaslik).

3. Maktabdan tashqari muhitdagi nuqsonlar:

a) oilada pedagogik va psixologik bilimlarning yetishmasligi;

a) oilaning buzilishi va oilaviy nizolar;

v) ota-ona yoki oila a'zolarining shahvoniy hayotga va ichkilikka berilishi;

g) oila a'zolari o'rtasida sudlangan kishining uchrashi;

d) tengqurlarning salbiy ishlariga (haqorat qilishga, ichishga, chekishga, qo'li egrilikka) o'rgatish va h.z.; ye) madaniy-ma'rifiy, ishlab chiqarish va jamoatchilikning kamchiliklari (e'tiborsizlik va loqaydliklari).





Bu o'rinda yoshlarning g'oyaviy maslagini hisobga olish ham nihoyatda muhimdir. O'quvchi individualligini shaxs mazmuniga, avvalo uning g'oyaviy maslagi, ya'ni uning qizikishlari, ideallarini bilish kerak. Yoshlarga individual munosabatda bo'lishda ijtimoiy maslak sifatida ularning ijtimoiy qiziqishlarini bilish ayniqsa muhimdir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'tmish mutafakkirlari ta'lim-tarbiya haqida. 2-kitob, 1993.
2. To'raeva O. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi. –T. 1994.
3. Musurmonov R., Musurmonova M. “O'quvchilarning darsga bo'lgan munosabatlarini klaster usulida o'rganish” O'quv-metodik qo'llanma, T.: “MALIK PRINT CO” 2022 y. 145 bet.



## O'SMIRLAR RUHIYATIDAGI PSIXOLOGIK O'ZGARISHLAR

---

*Yusupova Shodiya Avaz qizi*  
*Toshkent shaxar Yakkasaroy tumani*  
*127- o'rta ta'lim maktabi psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqola davr o'smirlari psixologiyasi haqida. Shuningdek, qizlar va o'smir bolalarda kechadigan psixologik o'zgarishlar ularning rivojlanishiga ta'siri haqida so'z boradi. O'smirlik davrining o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** O'smir, psixologiya, aqliy faollik. Jizzakilik, "men" konsepsiyasi, xarakter, xususiyat;

### KIRISH

O'smirlik davriga o'tish sifat jihatdan yangi shakllanishlarning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi, ular o'z-o'zini anglashning yangi darajasi, "men-Kontsepsiya" ning shakllanishi deb tushuniladi. O'smirlik 11-12 yoshdan, 14-15 yoshgacha bo'lan davrni o'z ichiga oladi. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan, 5-sinf dan boshlanadi. «Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas»- ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. O'smirlik bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jismoniy jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, xarakteri shakllanadi, ma'naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O'smirlik balog'atga yetish davri bo'lib, yangi xislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi. Bular ta'sirida o'smirning xarakteri, atrofdagi kishilar bilan muomalasi, jamiyatda sodir bo'layotgan voqealarga munosabati tez o'zgarib boradi. Ba'zan ijtimoiy masalalar to'g'risida noto'g'ri tassavvur va yangilish fikrlar hosil bo'lishi tufayli u muayyan tartib qoidalarga tanqidiy ko'z bilan qaraydi.

O'smirlik - bu inson hayotidagi muhim va qiyin bosqich, hayotning qolgan qismini ko'p jihatdan belgilaydigan tanlov vaqti. O'smirlik davri bolaning ijtimoiy faolligining jadal rivojlanishi va qayta tuzilishi bilan ajralib turadi. Bola hayotining barcha sohalarida kuchli siljishlar sodir bo'lmoqda, bu yoshni bolalikdan kamolotga "o'tish davri" deb bejiz aytishmagan. O'smirlik shaxsiyatning rivojlanish bosqichi, qaram, qo'riqlanadigan bolalikdan mustaqil hayotga o'tish jarayoni sifatida qaraladi,



bunda bola kattalar tomonidan o'rnatilgan maxsus qoidalarga muvofiq yashaydi. Bu vaqtda xulq-atvorning barqaror shakllari, xarakter xususiyatlari va hissiy reaksiya usullari shakllanadi va shakllanadi, ular kelajakda kattalar hayotini, uning jismoniy va ruhiy salomatligini belgilaydi. Shuning uchun ham o'smir shaxsining sog'lom rivojlanishiga to'sqinlik qilmaydigan, aksincha, xizmat qiladigan shartsharoitlarni ta'minlashda oila muhitining o'rni juda katta.

L.S. Vygotskiy neoplazmani aniq belgilashga muvaffaq bo'ldi - Bu ushbu o'zgarishlarning umumlashtirilgan natijasi, tegishli davrda bolaning butun aqliy rivojlanishi, bu keyingi bolaning aqliy jarayonlari va shaxsiyatining shakllanishi uchun boshlang'ich nuqtaga aylanadi. neoplazmalar bolaning shaxsiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi sharoitlarda chuqur o'zgarishlar bilan tavsiflanadi, ular psixologik xususiyatlar shaklida belgilanadi. Ko'pincha ular tananing fiziologiyasi, o'smirlarda kattalar va tengdoshlar bilan rivojlanadigan munosabatlar, kognitiv jarayonlarning Rivojlanish darajasi, aql va qobiliyatlar bilan bog'liq.

-Birinchi marta o'smirlik davrining psixologik xususiyatlarini S. Xoll tasvirlab berdi, u o'smirlik xatti-harakatlarining nomuvofiqligini ko'rsatdi (masalan, intensiv muloqot izolyatsiya bilan almashtiriladi, o'ziga ishonch o'ziga ishonchsizlik va o'ziga ishonchsizlikka aylanadi va hokazo. ). U psixologiyaga o'smirlik g'oyasini rivojlanishning inqiroz davri sifatida kiritdi. -Voyaga etganlik hissi o'smirlik davrining boshlanishining psixologik belgisidir. Ta'rifga ko'ra, D.B. Elkonin, balog'at tuyg'usi - bu ongning yangi shakllanishi bo'lib, u orqali o'smir o'zini boshqalar (kattalar yoki o'rtoqlar) bilan taqqoslaydi, assimilyatsiya qilish uchun modellarni topadi, boshqa odamlar bilan munosabatlarini quradi va o'z faoliyatini qayta tashkil qiladi. O'smirlik davrining o'tish davri, albatta, biologik jihatni o'z ichiga oladi. Bu balog'atga etish davri bo'lib, uning intensivligi gormonal bo'ron tushunchasi bilan ta'kidlangan. Jismoniy, fiziologik, psixologik o'zgarishlar, jinsiy istakning paydo bo'lishi bu davrni, shu jumladan, har jihatdan eng tez o'sayotgan o'smir uchun juda qiyin qiladi.

O'smirlik quyidagi psixologik xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1. Voyaga etganlik tuyg'usining paydo bo'lishi va emansipatsiya reaksiyasi .

V.V. Kovalyovning ta'kidlashicha, bu balog'atga etish istagi, mustaqillik, o'zini kattalar vasiyligidan ozod qilish istagi, bolalarga tegishliligini inkor etish. O'smir o'z huquqlarini kengaytirishga va unga nisbatan kattalarning huquqlarini cheklashga intiladi shaxsiyat. Norozilik va itoatsizlik - bu o'smirning vositasidir kattalar bilan munosabatlarning oldingi turini o'zgartirishga intiladi.



## 2. Tengdoshlar bilan reaksiyalarni guruhlash

Tengdoshlar bilan muloqot o'smirlik davridagi etakchi faoliyat bo'lib, o'quv faoliyati fonga o'tadi. A.E.ning so'zlariga ko'ra. Lichkoning so'zlariga ko'ra, teng huquqlilik va hamkorlik asosida tengdoshlar guruhiga qo'shilish hozirgi davrning eng muhim muammosi: o'rtoqlar bilan doimiy muloqot o'smirning ular orasida munosib o'rin egallash istagini keltirib chiqaradi va xatti-harakatlarning asosiy motivlaridan biridir. faoliyat. Yigitlar guruhlarda muloqot qilishadi, ularning do'stligi juda hissiy, ko'plab tajribalarga to'la.

## 3. Qarama-qarshi jinsga qiziqishning paydo bo'lishi

A.V. Matyuxinaning ta'kidlashicha, jismoniy va jinsiy rivojlanish o'smirda boshqa jinsga qiziqish uyg'otadi va shu bilan birga ularning tashqi ko'rinishiga e'tiborni oshiradi. Juda hissiy sevgi-do'stlik munosabatlari mavjud. Javobsiz hamdardlik ko'pincha juda kuchli his-tuyg'ularning manbai bo'ladi. Ba'zi o'smirlarda ilk bor jinsiy aloqaning birinchi tajribasi ham sodir bo'ladi.

## 4. O'z-o'zini anglashni rivojlantirish

O'smir shaxsining eng muhim xususiyati, L.S.Vygotskiy ta'kidlaganidek, aks ettirishning tez rivojlanishi va uning asosida o'z-o'zini anglashdir. Aynan shu yoshda shaxsning o'zini o'zi qadrlashga yo'naltirilganligi paydo bo'ladi. O'smirning intilish darajasi o'z-o'zini hurmat qilish xususiyatiga bog'liq. O'z-o'zini hurmat qilish o'smirning boshqa odamlar bilan muloqot qilish jarayonida paydo bo'ladi va shakllanadi. M.V.Gamezo, "Agar baholash adekvat bo'lsa, unda adekvat o'z-o'zini hurmat qilish shakllanadi, lekin agar o'smir kam baholansa yoki ortiqcha baholansa, u holda o'zini-o'zi qadrlashning etarli emasligi shakllanadi" dedi. -Yuqorida aytilganlarga asoslanib, shuni aytishimiz mumkinki, o'smir o'zining jismoniy va jinsiy rivojlanishidagi kuchli o'zgarishlarni sezib, oilada va maktabda ijtimoiy faol, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lish imkoniyatini his qilib, endi bola emasligini tushunadi. Ijtimoiy faollik deganda, V. G. Maralov bolaning ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun ushbu yoshga xos bo'lgan faoliyatga qo'shilishi, aqliy faollik darajasini ko'rsatish qobiliyatini tushunadi. ijtimoiy ahamiyatga ega shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish nuqtai nazaridan boshqalar va o'zi uchun muhim bo'lgan natijalarga erishishga hissa qo'shadi. T.V. Dragunovanning ta'kidlashicha, o'smirning o'ziga xos ijtimoiy faoliyati kattalar dunyosida mavjud bo'lgan qadriyatlar, me'yorlar va xatti-harakatlarning o'zlashtirilishiga ko'proq moyillikni anglatadi. O'smir kattalar hayotiga taqlid qilib qo'shilishga harakat qiladi. Birinchidan, u o'zi uchun qulayroq bo'lgan narsalarni qabul qiladi: tashqi ko'rinishi va xulqatvori.



Xulosa: o'spirin uchun tez o'zgarib turadigan yangi vaziyatda u ko'pincha o'z nuqtai nazarini yo'qotadi, qiyinchiliklarga duch kelganda, o'spirinda kuchli qarshilik hissi paydo bo'ladi, o'smirlar o'z his-tuyg'ularini zo'ravonlik bilan ifodalashga moyil bo'ladilar. o'smirning ruhiy holati, konflikt e'tiborni tortadi va rivojlanish holatlarining keskinligi. Bularning barchasi o'smirlik davridagi qiyinchiliklarning asosiy shartidir. Biz jamiyatni ushbu qiyinchiliklarga qarshi kurashish uchun turli xizmatlarni yaratishga majbur qiladigan qiyinchiliklar haqida gapiramiz. Biz deviant (deviant) xatti-harakatlar haqida gapiramiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Vygotskiy, L.S. Bolalik psixologiyasi (1930) L.S.Vigotskiy. - M.: Eksmo-press, 2000. - 1008 b.
2. Ostapenko G.S., Ostapenko R.I. Deviant xulq-atvori bo'lgan o'smirlarning shaxsiy xususiyatlarini tahlil qilish // Fan va ta'lim istiqbollari. 2013. No 1. S. 54-60
3. Rahmatjonqizi, N. (2023). PSIXOLOGIK YETUKLIKNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK OMILLARI. Scientific Impulse, 1(6), 436-438.
4. Rahmatjonqizi, N. (2023). KASALLIKKA MUNOSABAT TIPLARI VA ULARNING TAHLILI. Scientific Impulse, 1(6), 439-443.
5. Назарова, З. (2023). ПСИХОСОМАТИК КАСАЛЛИКЛАРДА ПСИХОКОРРЕКСИЯ ВА ПСИХОПРОФИЛАКТИКА УСУЛЛАРИ. Новости образования: исследование в XXI веке.



## INDUCTIVE APPROACH TO GRAMMAR TEACHING IN EFL CLASSROOM

---

*Orifjonova Durdona Muzaffar qizi*

*Fergana state university English language and literature faculty,  
Department of English language teaching methodology, senior teacher*

*Qòchqorova Zulfizar Abduxamidovna*

[\*orifjonovadurdona@gmail.com\*](mailto:orifjonovadurdona@gmail.com)

**Abstract:** This research paper focuses on the important inductive approach to teaching a foreign language. The overall aim of this study is to provide learners with examples of the target grammatical structure and guide them to discover the rules and patterns through analysis and practice. This approach focuses on the principles of cognitive learning theory and suggests that learners can easily remember grammar rules when they actively engage in the learning process.

**Key words:** observation, patterns, examples, generalization, application, practice, discovery, analysis, synthesis.

### Introduction

In this approach, the teacher begins with a set of examples that illustrate the target grammar point. These examples can be taken from authentic materials such as texts, dialogues, or other sources. Also, teachers target some activities that involve identifying patterns, completing sentences, or analyzing the use of structure in context. The inductive approach to grammar teaching in the EFL classroom involves presenting learners with examples of the target grammatical structure and guiding them to discover the rules and patterns through analysis and practice. This approach is based on the principles of cognitive learning theory, which suggests that learners can better recognize grammar rules when they do engage in the learning process. Furthermore, This process helps them develop a deeper analysis of the structure and its usage, as well as their ability to use their speaking and writing skills. The inductive approach to grammar teaching has several advantages. It can engage the learners in the lesson, and it helps to promote their critical thinking. Learners are required to analyze and use their knowledge in real-life contexts. It involves a more student-centered approach. However, it is important to note that the inductive approach may not be suitable for all learners or all grammar points. Some learners face some difficulties, particularly with complex or unfamiliar structures. Furthermore, the



inductive approach can be more time-consuming than traditional deductive methods because it requires learners to do activities throughout the whole lesson process. Furthermore, the inductive approach to grammar teaching in EFL classrooms involves using authentic materials and activities to teach grammar rules. This method, based on cognitive learning theory, helps learners identify patterns, complete sentences, and analyze structure usage. It promotes critical thinking, engages learners in real-life contexts, and is student-centered. However, it may not be suitable for all learners or grammar points, and may be more time-consuming than traditional deductive methods due to the need for continuous activities. When teaching grammar utilizing an inductive approach, it is essential to scaffold learning and offer students help. Students can be given more responsibility by teachers as they improve in interpreting and using grammar rules. To assist pupils in improving their language abilities, this can be accomplished by giving them feedback and guiding their practice exercises.

Moreover, some scientist works that For Johnson (1994: 126) grammar practice often fails to lead to acquisition because of the 'remoteness of the practice conditions to the real skill', to the 'production of real life'. And although explicit grammar teaching and focus on the accurate production of the 'form' of the structures can be very beneficial to learning, many researchers argue that it should be accompanied by meaningful grammar practice by shifting the focus to the actual 'message' which it conveys. Johnson proposes the use of language activities that prepare students for real life communication, activities which require grammar but in a way that turn our learners' attention away from the 'form' and make them focus more on the meaning, on the message that they want to convey. Also, The inductive approach is a more modern style of teaching where the new grammatical structures or rules are presented to the students in a real language context (Goner, Phillips, and Walters 135). The students learn the use of the structure through practice of the language in context, and later realize the rules from the practical examples. For example, if the structure to be presented is the comparative form, the teacher would begin the lesson by drawing a figure on the board and saying, "This is Jim. He is tall." Then, the teacher would draw another taller figure next to the first saying, "This is Bill. He is taller than Jim." The teacher would then provide many examples using students and items from the classroom, famous people, or anything within the normal daily life of the students, to create an understanding of the use of the structure. The students repeat after the teacher, after each of the different examples, and eventually practice the structures meaningfully in groups or pairs. (Goner, Phillips, and Walters 135-



136) With this approach, the teacher's role is to provide meaningful contexts to encourage demonstration of the rule, while the students evolve the rules from the examples of its use and continued practice (Rivers and Temperley 110).

**Conclusion.** In the classroom, the inductive approach to grammar teaching can be an effective way to promote learners understanding and application of grammar rules. Also, this approach can help them develop a more solid foundation in English grammar. Also, the inductive approach to grammar teaching in the EFL classroom offers several benefits for students, including promoting critical thinking and problem-solving skills. By using authentic materials, guiding students to discover grammar rules, creating meaningful activities, and providing support for students, teachers can effectively implement an inductive approach to grammar teaching.

### REFERENCES:

- Erlam, Rosemary. (Summer 2003). "The Effects of Deductive and Inductive Instruction on the Acquisition of Direct Object Pronouns in French". *The Modern Language Journal*. Vol. 87, No. 2: pp. 242-260. 24 January 2009 <<http://www.jstor.org/stable/1193035>>.
- Fischer, Robert A. (March, 1979). "The Inductive-Deductive Controversy Revisited". *The Modern Language Journal*. Vol. 63, No. 3 pp. 98-105. 24 January 2009 <<http://www.jstor.org/stable/325777>>.
- Goner, Phillips, and Walters. (1995). *Teaching Practice Handbook: Structures: Grammar and Function*.
- Rivers, Wilga M., Temperley, Mary S. (1978). *A Practical Guide to the Teaching of English as a Second or Foreign Language*. Oxford University Press.
- Seliger, Herbert W. (1975). "Inductive Method and Deductive Method in Language Teaching: A ReExamination." *IRAL*. 13, pp. 1-18. <<http://www.jstor.org/stable/1212897>>.
- Erlam, Rosemary. (Summer 2003). "The Effects of Deductive and Inductive Instruction on the Acquisition of Direct Object Pronouns in French". *The Modern Language Journal*. Vol. 87, No. 2: pp





## МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING BILISH JARAYONI

---

*Mamadiyorova Sevinch Bobomurot qizi*

*Toshkent Bucheon Universiteti 1- bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonlarini rivojlantirish va bolalarning bilish qobiliyatlarining yoshga oid rivojlanish xususiyatlari o'rganildi xamda bolalarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish masalasi taxlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** bilish jarayonlari, bolalar, maktabgacha yoshdagi qobiliyat, o'yin, psixika, xulq-atvor, aqliy taraqqiyot.

### KIRISH

Bilish jarayonlari – bu shunday psixik jarayonlarki, ular shaxsga o'zini o'rab turgan atrof-muhitning ma'lum va muhim xususiyatlarini anglashga, tushunishga va ular ustida o'ziga zarur xulosalar chiqarib, o'z xulq-atvorini rejalashtirishga imkon beradi. Bu jarayonlar insonga juda yaqin va tanish. Chunki har birimiz ongimiz borligini, atrofda narsalar va hodisalarning ayrim alohida hamda yaxlit xususiyatlarini bilamiz. Bu narsa va hodisalar bizda har bir alohida sharoitda o'ziga xos hissiy-kechinmalarni keltirib chiqarishini ham bilamiz. Masalan, qorningiz och qolganda, yemishga bo'lgan talabingizni haqiqatan bor yoki yo'qligini birovlardan so'ramaysiz-ku? Yoki kitob mutoala qilayotgan shaxs shu kitobni rost bilan ham o'zi o'qiyotganligini boshqalardan so'ramaydi. Bunday ishlar o'z-o'zidan tabiiy jarayonlarday kechaveradi. Faqat imtihon paytida kechasi bilan mutoaala qilib, o'rganib chiqqan materialni nega hozir domla oldida eslay olmayotganligingiz sizni ko'proq qiziqtiradi va siz “Xotiram ustida ishlashim kerak” degan xulosaga kelasiz. Darxaqiqat, bilish jarayonlari ham ma'lum ma'noda boshqariladigan jarayonlar bo'lib, agar siz o'z imkoniyatlaringizni kengaytirish yoki iqtidor darajangizni orttirmoqchi bo'lsangiz, bu jarayonlarga oid ma'lum qoidalar va xususiyatlarni bilib olishingiz kerak. Inson ongi bir qarashda yaxlit narsa, aslida u ayrim alohida jarayonlardan iborat. Shuning uchun ham atrof-muhitni, o'zimizni bilishimizga imkon beruvchi ongni o'rganish uchun uni alohida psixik jarayonlarga bo'lib o'rgana boshlaganlar. Bu jarayonlar – sezgilar, idrok, xotira, diqqat, tafakkur, nutq va boshqalardir. Bu jarayonlar shu qadar bir-birlari bilan bog'liqki, birini ikkinchisiz tasavvur qilishning o'zi qiyin. Masalan, ko'rib idrok qilib turgan narsangizni fikrlamay ko'ringchi, uning mohiyatini bilasizmi? Diqqat bilan ko'rgan yoki o'qigan



tekstingizni eslab qolasiz. Yoki biror narsa to'g'risida fikrlash uchun bizga bir vaqtda ham ilgari idrok obrazlari, ham eslab qolish mahoratimiz, ham ichki nutqimiz, irodamiz va diqqat kerak bo'ladi. Hattoki, tasodifan qo'limizga kirib ketgan zirapchaga bergan reaksiyamiz ham oddiy oh-vohga o'xshash hissiyotlardan tashqari, o'sha narsaning bu yerda qanday paydo bo'lganligi kabi qator tafakkur jarayonlarini keltirib chiqaradi.

### **Muhokama va natijalar**

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim tizimining boshlang'ich bo'g'ini sifatida oldiga g'oyat dolzarb vazifalar belgilandi. Xususan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlarini tatbiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish masalalari shular jumlasidandir.

Jamiyatning hozirgi taraqqiyoti inson faoliyatining ma'naviy va moddiy sohalarida katta o'zgarishlar qilishni taqozo etmoqda. Bu shaxs omili, uning ijtimoiy-siyosiy faoliyati rolining ahamiyati ortib borayotganligi bilan belgilanadi. Zero, shaxs intellektual qobiliyatini rivojlantirmay, uni ma'naviy-axloqiy tarbiyalamay, shuningdek, imkoniyatlarining yangi qirralarini to'la ro'yobga chiqarmay turib ijtimoiy taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Jamiyat tomonidan shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoit yaratilar ekan, o'z navbatida shaxs qobiliyati, imkoniyatlari ana shu jamiyatning ham ijtimoiy, ham iqtisodiy, ham madaniy jihatdan rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadi. Ayni vaqtda shaxs qobiliyati, imkoniyatlarini rivojlantirish va uni yagona ijtimoiy maqsadga yo'naltirish o'ziga xos dolzarblik kasb etmoqda.

6-yoshli bola shaxsi shakllanishining dastlabki bosqichi.

Dastlab bola butunlay kattalarga bog'liq bo'ladi. Tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlar ko'p jihatdan kattalarning bola bilan o'zaro munosabati xususiyatiga bog'liq. Kattalarga ergashib bolalar o'zini ismi bilan atay boshlaydilar. Ikkinchi yil oxiriga kelib o'zini ismi bilan chaqirish «men» kishilik olmoshi bilan almashinadi. «Men» tizimi – erta bolalikda paydo bo'luvchi markaziy hodisadir. Bola o'zini kattalardan ajratishni o'rganadi, o'ziga nisbatan mustaqil «men» sifatida munosabatda bo'la boshlaydi, ya'ni unda o'zini anglashning boshlang'ich shakli paydo bo'ladi. Rivojlanishdagi muvaffaqiyatlar bola xulq-atvorini o'ziga xos tarzda o'zgartiradi. Kattalar avvalgidek etakchi o'rin tutsada, bola o'z amaliy hayotining tor muhiti va u qadar katta bo'lmagan imkoniyatlari doirasida kattalar yordamisiz



harakat qilishga intiladi. Yangi tendensiyalar bola faolligini («men o‘zim») kuchaytiradi va kattalar bilan yangi munosabatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Maktabgacha yoshda sensor idrok, ayniqsa, ko‘rish va eshitish orqali qabul qilish sezilarli rivojlanadi. Bola ongli ravishda rasm chizadi va musiqiy faoliyatda ishtirok eta boshlaydi. U unga qanday sur‘at yoki musiqa yoqishini, qaysilari yoqmasligini aytishi mumkin. Biroq u hali musiqani to‘liq va differensiyalangan holda qabul qilmaydi.

Maktabgacha yoshdagi bola rivojlanishida bu yoshning asosiy faoliyat turi bo‘lib hisoblangan o‘yin juda muhim ahamiyatga ega. O‘yin o‘zining barcha tur va ko‘rinishlarida (syujetli, rolli, qoidal, nutqiy, badiiy, musiqiy va boshqalar) bolaning jismoniy, eshitish, aqliy, estetik rivojlanishiga faol yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishi ijtimoiy vaziyati xususiyatlari unga xos bo‘lgan faoliyat turlari, ayniqsa, syujetli-rolli o‘yinlarda aks etadi. Zarur bilim va qobiliyatsiz kattalar dunyosiga yaqinlashishga urinish bolani uning uchun imkoni bo‘lgan o‘yin shakliga olib keladi. Bola rivojlanishi uchun maktabgacha muassasalar tizimi, ayniqsa, bog‘cha yaxshi sharoit yaratadi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, psixik rivojlanish va maktabda o‘qishga tayyorgarlik darajasi bolalar bog‘chasida tarbiyalangan bolalarda bog‘chaga bormaydigan bolalarga nisbatan yuqori.

O‘quv faoliyatining mazmunini ilmiy tushunchalar, fan qonuniyatlari va ularga tayangan amaliy masalalarni hal etish uslubi tashkil etadi. Shunday qilib o‘qish – bu bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishga yo‘naltirilgan jarayon.

O‘quv faoliyati aniq bir tuzilishga ega. Uning tarkibiy qismlari quyidagilar:

1) o‘qish vaziyati (yoki vazifalari), 2) o‘qish harakati, 3) nazorat, 4) baho.

Katta maktabgacha yosh davomida bolalarning o‘qishga munosabatida muayyan dinamika kuzatiladi. Dastlab ular o‘qishga umumiy holda ijtimoiy faoliyat sifatida intilishadi. Keyin esa ularni o‘quv ishining alohida usullari jalb etadi. Nihoyat, bola o‘quv faoliyatining ichki mazmuniga qiziqib, o‘quv-nazariy vazifalarni aniq-amaliy vazifalarga mustaqil o‘zgartiradi. Uning shakllanish qonuniyatlarini tadqiq etish zamonaviy bolalar va pedagogika psixologiyasi vazifalaridan biridir.

Olti yoshli bola asosan tashqi tomondan yorqin va emotsional jihatdan ta’sirli voqea, tasvir, hikoyalarni eslab qoladi. Lekin maktab hayoti shundayki, boshidanoq bolalardan materialni ixtiyoriy eslab qolish talab etiladi. O‘quvchilar kun tartibi, axloq qoidalari, uy vazifalarini maxsus eslab qolishlari, keyin esa ularga rioya etishlari lozim. O‘quv materialini eslab qolish alohida bilimni talab etadi. Usiz o‘quv xotirasi zaif va tartibsizligicha qolaveradi. Bola maxsus aniqlash, guruhlash va



taqqoslashni talab etuvchi narsani bevosita eslab qolishga harakat qilayotganida bu «yomon xotira» pand beradi. O‘quv materiali bilan ishlash usullarining shakllanishi «yaxshi xotira»ni yanada samaraliroq tarbiyalash yo‘li sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda nutq ustida ishlash kabi xotiraning ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlaridan oqilona foydalanish lozim. Tasavvur qobiliyatining rivojlanishi ikki bosqichda kechadi. Dastlab yaratiluvchi obrazlar real ob‘ektga yaqin tavsiflanadi (detallarga boy bo‘lmagan holda). 6- yoshli bola oxiri, keyin esa 7-yoshda ikkinchi bosqich boshlanadi. Avvalo, alomatlar va tarkibiy qismlar miqdori sezilarli tarzda oshadi.

Yaratuvchi (reproduktiv) tasavvur 6- yoshlilarda barcha faoliyatlarida rivojlanadi.

Tayyorlov guruh bolalarining biror predmetning kelib chiqishi va qurilishi shart-sharoitini ko‘rsatishga harakat qilishi - ularda ijodiy (produktiv) tasavvur rivojlanishida muhim psixologik asosdir. 6 yoshdagi bolalarning o‘z xattixarakatlarini ma‘lum vazifalarni ado etishga buysundira olishlari, tobora kuchayib borayotgan qiziqish va erishgan aqliy taraqqiyot darajalari ularni ma‘lum ta‘limiy dastur asosida tarbiyalash imkonini beradi. Maktabgacha ta‘limda to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan tarbiyaviy ishlar bolalarda mehnat faoliyatining dastlabki belgilari xamda bilimga qiziqishni tarkib toptiradi. Maktabgacha ta‘lim xayotining ko‘p qirrali va sarmazmunligi 6 yoshli bolalar bilish faoliyatlarining kengayishiga hamda chuqurlashishiga yordam beradi. Bu esa asosiy bilish jarayonlari bo‘lgan idrok, tasavvur, xotira va tafakkur kabi jarayonlarning xarakterini o‘zgartirib yuboradi. Maktabgacha ta‘limgacha tarbiya yoshidagi bolalarda bu jarayonlar ularning o‘yin yoki biron amaliy faoliyatlari bilan birga namoyon bo‘ladi. Masalan, kichik yoshdagi bolalar biron narsa bilan mashg‘ul bo‘lib turganlarida uni idrok qiladilar, ilgari ham shu narsa bilan mashg‘ul bo‘lganlarini eslaydilar va uni analiz va sintez qilib ko‘radilar. 6 yoshdagi bolalarda esa bu asosiy bilish jarayonlari bir-biridan differensiallashgan (ajratilgan) bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bola biron o‘yin faoliyati yoki biron narsa bilan mashg‘ul bo‘lishi jarayonidagina emas, balki bunday amaliy faoliyatdan tashqari ham biror narsa yoki xodisani idrok qilishi, tasavvur etishi, esida olib qolishi, esiga tushunishi hamda oddiy tarzda tafakkur qilishi mumkin. Shuning uchun bolaning maktabgacha yoshdagi davrida ana shu asosiy psixik jarayonlari va xususan tafakkur hamda nutq jarayonlari jadal rivojlanadi. Bolalar kattalar bilan bo‘lgan munosabatlarida narsa va xodisalar haqida elementar tushunchalar tizimini egallab olib, tafakkur qilishga o‘rgana boshlaydilar.



## XULOSA

O'yin va maktabgacha ta'limdagi didaktik mashg'ulotlar jarayonida bolalarning aql idroki, xotira va tafakkuri o'sadi. Bular o'z navbatida, bolaning maktabda o'qiy olishi uchun psixologik zamin tayyorlaydi. Bunday zaminni tayyorlash va mustahkamlashda, albatta oilada hamda bolalar maktabgacha ta'lim muassasasida olib borilgan ta'lim tarbiya ishlari hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Arsenyeva M.S. "Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bolalar eksperimentining ahamiyati". Maktabgacha ta'lim. - 2012 yil - No 4.
2. Vaxrusheva L.N. "5-7 yoshli bolalarda bilish qiziqishlarni o'rgatish". M.: TC Sphere, 2012 yil.
3. Nemov R.S. "3 jildda psixologiya". - M.: Vados, 1995 yil. - 3-jild, 148-bet.
4. Poddyakov N.N. "Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishining xususiyatlari" - M., 1996 y.
5. Poddyakov N.N. Sensatsiya: yangi etakchi faoliyatning ochilishi / N.N.
6. Malikaxon Qodirova, ЧЕЛОВЕК И СТРЕСС , Журнал Педагогики и психологии в современном образовании: No 1 (2020): Journal of Pedagogy and psychology in modern education.



## “ELLIPS VA UNING XARAKTERISTIKALARI”

*G`afforova Xosiyat Umar qizi Navoiy viloyat*

*Qiziltepa tuman 2 - son kasb hunar maktabi*

*Matematika fani o`qituvchisi*

*Isoqov Olim Qalandarovich Navoiy viloyat*

*Qiziltepa tuman 2 - son kasb hunar maktabi*

*Matematika va informatiak fani o`qituvchisi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada majburiy fan hisoblangan “Analitik geometriya” dan barcha o`quv yurtlari uchun bakalavr yo`nalishi bo`yicha “Matematika va informatika” bo`limida tahsil oladigan talabalar uchun “Ellips va uning xarakteristikalar” mavzusi batasil bayon etilgan. Shu bilan birga mazkur maqolada Tekislikda I tartibli tenglamalar faqat va faqat to`g`ri chiziqlarni ifodalashi, ammo tekislikda II tartibli tenglamalarga turli chiziqlar mos keladi va ular II tartibli chiziqlar deyilishi haqida so`z borgan. Ulardan biri ellips bo`lib hisoblanadi. Ellipsning grafigini qisilgan aylana kabi tasavvur etish mumkin. Ellipsning o`ziga xos xususiyati shundan iboratki, uning ixtiyoriy nuqtasidan fokuslar deb ataluvchi ikkita nuqtalargacha bo`lgan masofalar yig`indisi o`zgarmas sonidir. Ellipslar amaliyotda ko`p uchraydi va keng qo`llaniladi. Masalan, planetalar Quyosh atrofida ellips bo`yicha aylanadi. Ellipsning xususiyatlari uning kanonik tenglamasi bo`yicha o`rganiladi. Bunda uning eksentrisitet, direktrisa va fokal radiuslar kabi xarakteristikalaridan foydalaniladi. Shuni ta`kidlab o`tish kerakki, bizga maktabdan tanish bo`lgan aylana ellipsning xususiy bir holdir. Mazkur maqolada shular yoritib berilgan.

**Kalit so`zlar:** Ikki o`zgaruvchili II tartibli tenglamalar, tekislikdagi II tartibli chiziqlar, aylana, aylana markazi, aylana radiusi, aylananing normal tenglamasi, aylananing kanonik tenglamasi, aylananing umumiy tenglamasi, ellips, ellipsning fokuslari, ellipsning kanonik tenglamasi, ellipsning uchlari ellips o`qlari, fokal radiuslar, ellips eksentrisiteti, ellips direktrisalari.

### IKKINCHI TARTIBLI CHIZIQLAR

#### 1.1 II tartibli tenglama va chiziqlar.

Bu bobda har qanday I tartibli  $Ax+By+C=0$  tenglama tekislikda biror to`g`ri chiziqni aniqlashini va aksincha, tekislikdagi har qanday to`g`ri chiziq I tartibli



tenglamaga ega bo'lishini bilamiz va II tartibli tenglama va chiziqlar haqida to'xtalamiz va misollarda ko'rib chiqamiz.

Endi tekislikda II tartibli tenglamalarni qaraymiz. Bu tenglamalarning umumiy ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$Ax^2+2Bxy+Cy^2+2Dx+2Ey+F=0 \quad (1.1.1)$$

Bunda (1.1.1) tenglamadagi A, B, C koeffitsiyentlardan kamida bittasi noldan farqli, ya'ni  $A^2+B^2+C^2 \neq 0$  shart bajarilishi kerak. Aks holda (1.11) tenglama I tartibli tenglamaga aylanadi.

**1.1.1-TA'RIF:** Tenglamasi (1.1.1) ko'rinishda bo'lgan tekislikdagi chiziqlar **II tartibli chiziqlar** deb ataladi.

Biz quyida bunday chiziqlarning turlari bilan tanishib chiqamiz. Hozircha esa (1.1.1) tenglama har doim ham biror egri chiziqni ifodalashi shart emasligini misollar orqali ko'rsatamiz.

**1.1.1-misol.** (1.1.1) tenglamadan  $A=1, C=-1, B=D=E=F=0$  holda hosil bo'ladigan II tartibli  $x^2-y^2=0$  tenglama ikkita I tartibli  $y=\pm x$  tenglamalarga ajraladi va ikkita to'g'ri chiziqni ifodalaydi.

**1.1. 2-misol.**  $A=C=F=1, D=-1, B=E=0$  holda (1.1.1) tenglama

$$x^2+y^2-2x+1=0 \Rightarrow (x-1)^2+y^2=0$$

ko'rinishga keladi va uni faqat bitta  $M(1,0)$  nuqta qanoatlantiradi.

**1.1 3-misol.**  $A=C=F=1, D=B=E=0$  holda (1.1.1) tenglama  $x^2+y^2+1=0$  ko'rinishga keladi va uni birorta ham nuqta qanoatlantirmaydi, ya'ni bu tenglama bo'sh to'plamni ifodalaydi.

## 1.2. Aylana va uning tenglamalari.

Bizga maktabdan tanish bo'lgan aylana ta'rifini eslaymiz.

**1.2.1-TA'RIF:** Berilgan  $M(a,b)$  nuqtadan bir xil R masofada joylashgan tekislikdagi nuqtalar to'plami (geometrik o'rni) **aylana** deb ataladi. Bunda  $M(a,b)$  nuqta aylananing **markazi**, R soni esa aylananing **radiusi** deyiladi.

Markazi  $M(a,b)$  nuqtada va radiusi R bo'lgan aylananing tenglamasi

$$(x-a)^2 + (y-b)^2 = R^2 \quad (1.2.1)$$

ko'rinishda bo'lishini oldin ko'rib o'tgan edik. (1.2.1) aylananing **normal tenglamasi** deb ataladi va undan aylana II tartibli egri chiziq ekanligi ko'rinadi. Agar aylana markazi  $O(0,0)$  koordinata boshida joylashgan bo'lsa, uning tenglamasi

$$x^2 + y^2 = R^2$$

ko'rinishda bo'ladi va u aylananing **kanonik tenglamasi** deyiladi.



Endi umumiy holdagi II tartibli (1.2.1) tenglama qaysi shartda aylanani ifodalashini aniqlaymiz. Qisqa ko'paytirish formulalardan foydalanib (1.2.1) tenglamani

$$x^2+y^2-2ax-2by+a^2+b^2-R^2=0 \quad (1.2.2)$$

ko'rinishga keltiramiz. Bu yerdan aylananing (3) tenglamasi (1.2.1) umumiy tenglamadan

$$A=C=1, B=0, D=-2a, E=-2b; \quad F=a^2+b^2-R^2$$

bo'lgan holda kelib chiqishini ko'ramiz..

Endi qanday holda (1.2.1) umumiy tenglama aylanani ifodalashini aniqlaymiz. (1.2.2)tenglamadan ko'rinadiki birinchi navbatda  $B=0$  va  $A=C$  bo'lishi kerak. Bu holda  $A^2+B^2+C^2 \neq 0$  shartdan  $A=C \neq 0$  ekanligi kelib chiqadi va (1) tenglama ushbu

$$Ax^2+Ay^2+2Dx+2Ey+F=0 \quad (1.2.3)$$

ko'rinishda bo'ladi. Bu tenglamani (1.2.1) ko'rinishga keltirish uchun uni  $A \neq 0$  soniga bo'lamiz va to'liq kvadratlarni ajratamiz:

$$\begin{aligned} Ax^2 + Ay^2 + 2Dx + 2Ey + F = 0 &\Rightarrow x^2 + y^2 + 2\frac{D}{A}x + 2\frac{E}{A}y + \frac{F}{A} = 0 \Rightarrow \\ &\Rightarrow \left(x + \frac{D}{A}\right)^2 + \left(y + \frac{E}{A}\right)^2 + \frac{AF - D^2 - E^2}{A^2} = 0 \Rightarrow \\ &(x - a)^2 + (y - b)^2 = \frac{D^2 + E^2 - AF}{A^2}. \end{aligned} \quad (5)$$

Bunda  $a=-D/A$  va  $b=-E/A$  belgilash kiritilgan. Bu yerda  $\Delta=D^2 + E^2 - AF$  ishorasiga qarab uch hol bo'lishi mumkin.

I hol:  $\Delta < 0$ . Bu holda (5) tenglama bo'sh to'plamni (mavhum aylanani) ifodalaydi, chunki uning chap tomoni doimo nomanfiydir.

II hol:  $\Delta = 0$ . Bu holda (5) tenglama faqat bitta  $M(a,b)$  nuqtani (markazi shu nuqtada va radiusi  $R=0$  bo'lgan aylanani) ifodalaydi.

III hol:  $\Delta > 0$ . Bunda  $\Delta=R^2$  deb belgilash mumkin va (5) tenglama (2) ko'rinishni oladi, ya'ni aylanani ifodalaydi.

Demak, (1.2.3) ko'rinishdagi II tartibli tenglamada  $D^2+E^2-AF=\Delta>0$  shart bajarilsa, u  $M(a,b)$  markazining koordinatalari  $a=-D/A$  va  $b=-E/A$ , radiusi esa

$$R = \frac{\sqrt{D^2 + E^2 - AF}}{|A|}$$





bo'lgan aylanani ifodalaydi va (1.2.3) *aylananing umumiy tenglamasi* deb aytiladi.

Masalan,  $x^2+y^2-2x+6y-15=0$  tenglamani qaraymiz. Bu tenglamada

$$A=C=1, D=-1, E=3, F=-15, D^2+E^2-AF=1+9-(-15)=25>0.$$

Demak, bu tenglama markazi  $M(1, -3)$  va radiusi  $R=5$  bo'lgan aylanani ifodalaydi. Haqiqatan ham

$$x^2+y^2-2x+6y-15=0 \Rightarrow (x-1)^2-1+(y+3)^2-9-15=0 \Rightarrow (x-1)^2+(y+3)^2=25=5^2.$$

Berilgan  $M(a,b)$  nuqtadan bir xil  $R$  masofada joylashgan tekislikdagi nuqtalar to'plami (geometrik o'rni) *aylana* deb ataladi. Bunda  $M(a,b)$  nuqta aylananing *markazi*,  $R$  soni esa aylananing *radiusi* deyiladi.

Markazi  $M(a,b)$  nuqtada va radiusi  $R$  bo'lgan aylananing tenglamasi

$$(x-a)^2+(y-b)^2=R^2$$

Tenglama ko'rinishida bo'ladi.


## ELLIPSNING TENGLAMASI VA XARAKTERISTIKALARI

### 2.1. Ellips va uning kanonik tenglamasi.

Dastlab ellips ta'rifini keltiramiz.

**2.1.1-TA'RIF:** Berilgan ikkita  $F_1$  va  $F_2$  nuqtalargacha masofalarining yig'indisi o'zgarmas songa teng bo'lgan tekislikdagi nuqtalarining geometrik o'rni *ellips* deb ataladi. Bunda  $F_1$  va  $F_2$  nuqtalar ellipsning *fokuslari* deyiladi.

Ta'rif bo'yicha ellips tenglamasini keltirib chiqaramiz. Buning uchun  $F_1$  va  $F_2$  fokuslar orasidagi masofani  $2c$ , ellipsning ixtiyoriy  $M(x,y)$  nuqtasidan fokuslarigacha bo'lgan masofalar yig'indisini  $|MF_1|+|MF_2|=2a$  deb belgilaymiz. XOY Dekart koordinatalar sistemasini quyidagicha kiritamiz. OX o'qini  $F_1$  va  $F_2$  fokuslar orqali, OY o'qini esa fokuslar o'rtasidan o'tkazamiz (26-rasmga qarang). Bunda  $F_1$  va  $F_2$  fokuslar koordinatalar boshiga nisbatan simmetrik joylashadi va, belgilashimizga asosan  $|F_1F_2|=2c$  bo'lgani uchun,  $|OF_1|=|OF_2|=c$  bo'ladi. Shu sababli bu fokuslar  $F_1(-c,0)$  va  $F_2(c,0)$  koordinatalarga ega bo'ladi.





Bu holda, ikki nuqta orasidagi masofa formulasiga asosan,

$$|MF_1| = \sqrt{(x+c)^2 + y^2}, \quad |MF_2| = \sqrt{(x-c)^2 + y^2}$$

va, ellips ta'rifiga asosan,

$$|MF_1| + |MF_2| = \sqrt{(x+c)^2 + y^2} + \sqrt{(x-c)^2 + y^2} = 2a.$$

Bu tenglikni quyidagicha soddalashtiramiz:

$$\begin{aligned} \sqrt{(x+c)^2 + y^2} &= 2a - \sqrt{(x-c)^2 + y^2} \Rightarrow \\ \Rightarrow [\sqrt{(x+c)^2 + y^2}]^2 &= [2a - \sqrt{(x-c)^2 + y^2}]^2 \Rightarrow \\ \Rightarrow (x+c)^2 + y^2 &= 4a^2 - 4a\sqrt{(x-c)^2 + y^2} + (x-c)^2 + y^2 \Rightarrow \\ \Rightarrow 4a^2 - 4xc &= 4a\sqrt{(x-c)^2 + y^2} \Rightarrow (a^2 - xc)^2 = [a\sqrt{(x-c)^2 + y^2}]^2 \Rightarrow \\ \Rightarrow a^4 - 2a^2xc + (xc)^2 &= a^2(x-c)^2 + a^2y^2 \Rightarrow \\ (a^2 - c^2)x^2 + a^2y^2 &= a^2(a^2 - c^2). \end{aligned} \quad (6)$$

Yuqoridagi chizmadagi  $F_1MF_2$  uchburchakdan uchburchak tengsizligiga asosan

$$|MF_1| + |MF_2| > |F_1F_2| \Rightarrow 2a > 2c > 0 \Rightarrow a^2 - c^2 > 0$$

Ekanligini ko'ramiz.

Shu sababli  $a^2 - c^2 = b^2$  deb belgilab olish mumkin. Bu belgilashda (6) tenglama  $b^2x^2 + a^2y^2 = a^2b^2$  ko'rinishga keladi. Bu tenglamani  $a^2b^2$  ifodaga bo'lib, ushbu tenglamaga kelimiz:

$$\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} = 1 \quad (b^2 = a^2 - c^2) \quad (7)$$

**2.1.2-TA'RIF:** (7) tenglama ellipsning *kanonik tenglamasi* deyiladi.

Ellips kanonik tenglamasini tahlil etib, uning xususiyatlarini aniqlaymiz.

✓ Kanonik (7) tenglamada ellipsga tegishli har bir  $M(x,y)$  nuqtaning koordinatalari kvadrati bilan qatnashmoqda. Shu sababli  $M_1(-x,y)$ ,  $M_2(-x, -y)$  va  $M_3(x, -y)$  nuqtalarning koordinatalari ham (7) kanonik tenglamani qanoatlantiradi, ya'ni bu nuqtalar ham ellipsga tegishli bo'ladi. Bundan OX va OY koordinata o'qlari ellips uchun simmetriya o'qlari bo'lishi kelib chiqadi.

✓ (7) tenglamaga  $x=0$  yoki  $y=0$  qiymatlarni qo'yib va bunda hosil bo'ladigan tenglamalarni yechib, mos ravishda ellipsning OX yoki OY koordinata o'qlari bilan kesishish nuqtalarini topamiz:



$$x=0 \Rightarrow \frac{y^2}{b^2} = 1 \Rightarrow y^2 = b^2 \Rightarrow y = \pm b; \quad y=0 \Rightarrow \frac{x^2}{a^2} = 1 \Rightarrow x^2 = a^2 \Rightarrow x = \pm a.$$

Demak, ellips OX o'qini  $A_1(-a,0)$  va  $A_2(a,0)$ , OY o'qini esa  $B_1(0,-b)$  va  $B_2(0,b)$  nuqtalarda kesib o'tadi. Bu nuqtalar ellipsning **uchlari** deyiladi. Ellips uchlari orasidagi  $A_1A_2=2a$  va  $B_1B_2=2b$  kesmalar mos ravishda ellipsning **katta o'qi** va **kichik o'qi**,  $OA_1=OA_2=a$  va  $OB_1=OB_2=b$  esa uning **katta yarim o'qi** va **kichik yarim o'qi** deyiladi.

(7) kanonik tenglamadan ellipsga tegishli ixtiyoriy  $M(x,y)$  nuqtaning koordinatalari


$$\frac{x^2}{a^2} = 1 - \frac{y^2}{b^2} \leq 1 \Rightarrow x^2 \leq a^2 \Rightarrow |x| \leq a, \quad \frac{y^2}{b^2} = 1 - \frac{x^2}{a^2} \leq 1 \Rightarrow y^2 \leq b^2 \Rightarrow |y| \leq b$$

tengsizliklarni qanoatlantirishini ko'ramiz. Demak, ellips OX o'qi bo'yicha  $x=\pm a$  vertikal, OY o'qi bo'yicha esa  $y=\pm b$  gorizontal to'g'ri chiziqlar orasida joylashgan chegaralangan egri chiziqdan iborat bo'ladi.

✓ Koordinata o'qlari ellips uchun simmetriya o'qlari bo'lgani uchun uning grafigini faqat birinchi chorakda aniqlash kifoya. Bu yerda  $x \geq 0$  va  $y \geq 0$  bo'lgani uchun (7) tenglamadan unga teng kuchli bo'lgan

$$y = \frac{b}{a} \sqrt{a^2 - x^2}$$

tenglamaga kelamiz. Bunda  $x \in [0; a]$  bo'lib,  $x$  o'zgaruvchining qiymati 0 dan  $a$  ga qarab oshib borganda,  $y$  o'zgaruvchining qiymati  $b$  dan boshlab nolgacha kamayib boradi. Bu ma'lumot asosida dastlab ellips grafigini I chorakdagi qismini chizamiz, so'ngra uni simmetriya asosida II, III va IV choraklarga davom ettirib, ellips grafigini quyidagi 2.1.1-rasmdagidek bo'lishini topamiz:





## 2.2. Ellipsning xarakteristikalari.

Endi ellipsning ayrim xususiyatlarini ifodalovchi tushunchalar bilan tanishamiz.

**2.2.1-TA'RIF:** Ellipsning fokuslari orasidagi  $2c$  masofani uning katta o'qi uzunligi  $2a$  ga nisbati ellipsning *ekssentrisiteti* deb ataladi.

Ellipsning ekssentrisiteti  $\varepsilon$  kabi belgilanadi va ta'rifga hamda (7) kanonik tenglamaga asosan

$$\varepsilon = \frac{2c}{2a} = \frac{c}{a} = \frac{\sqrt{a^2 - b^2}}{a} = \sqrt{1 - \left(\frac{b}{a}\right)^2}. \quad (8)$$

Bu formuladan  $0 \leq \varepsilon < 1$  ekanligi kelib chiqadi. Agar  $\varepsilon = 0$  bo'lsa, (8) formuladan  $a = b$  ekanligini ko'ramiz. Bu holda  $a = b = R$  deb olsak, (7) kanonik tenglama  $x^2 + y^2 = R^2$  ko'rinishga keladi, ya'ni aylana tenglamasini ifodalaydi. Demak aylana ekssentrisiteti  $\varepsilon = 0$  bo'lgan ellipsdan iborat, ya'ni ellipsning xususiy bir holi ekan. Shunday qilib ellipsning ekssentrisiteti  $\varepsilon$  qiymati bo'yicha uning shakli haqida xulosa chiqarish mumkin. Bunda  $\varepsilon$  qiymati qanchalik nolga yaqin bo'lsa, ellipsning shakli shunchalik "dumaloqroq";  $\varepsilon$  qanchalik birga yaqin bo'lsa, ellipsning shakli shunchalik "cho'zinchoqroq" bo'ladi.

**2.2.2-TA'RIF:** Ellipsning ixtiyoriy  $M(x, y)$  nuqtasidan uning  $F_1$  va  $F_2$  fokuslarigacha bo'lgan  $|MF_1| = r_1$  va  $|MF_2| = r_2$  masofalar shu nuqtaning *fokal radiuslari* deyiladi.

Ellips ta'rifiga asosan  $r_1 + r_2 = 2a$  bo'ladi. Ikki nuqta orasidagi masofa formulasiga asosan

$$r_1 = |MF_1| = \sqrt{(x+c)^2 + y^2}, \quad r_2 = |MF_2| = \sqrt{(x-c)^2 + y^2}.$$

Fokal radiuslarning bu ifodalarini kvadratga oshirib, so'ngra hosil bo'lgan ifodalarni hadma-had ayirib hamda  $r_1 + r_2 = 2a$  ekanligini eslab,  $r_1$  va  $r_2$  uchun ushbu tenglamalar sistemasiga kelamiz:

$$\begin{cases} r_1^2 - r_2^2 = 4cx \\ r_1 + r_2 = 2a \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} (r_1 + r_2)(r_1 - r_2) = 4cx \\ r_1 + r_2 = 2a \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} r_1 - r_2 = \frac{2cx}{a} \\ r_1 + r_2 = 2a \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} r_1 - r_2 = 2\varepsilon x \\ r_1 + r_2 = 2a \end{cases}$$

Bu tenglamalar sistemasini yechib, fokal radiuslar uchun quyidagi formulalarni olamiz:

$$r_1 = a + \varepsilon x \quad r_2 = a - \varepsilon x \quad (9)$$

**2.2.3-TA'RIF:** Tenglamasi  $x = \pm a/\varepsilon$  bo'lgan vertikal to'g'ri chiziqlar ellipsning *direktrisalari* deyiladi.




Ellipsning ixtiyoriy  $M(x,y)$  nuqtasidan uning  $x=-a/\varepsilon$  va  $x=a/\varepsilon$  direktrisalarigacha masofalarni mos ravishda  $d_1$  va  $d_2$  deb belgilaymiz. Quyidagi chizmadan ko‘rinadiki  $d_1=(a/\varepsilon)+x$  va  $d_2=(a/\varepsilon)-x$ . Bu tengliklar va (9) formulaga asosan quyidagi natijani olamiz:

$$\frac{r_1}{d_1} = \frac{a + \varepsilon x}{\varepsilon} = \varepsilon \frac{\frac{a}{\varepsilon} + x}{\frac{a}{\varepsilon} + x} = \varepsilon, \quad \frac{r_2}{d_2} = \frac{a - \varepsilon x}{\varepsilon} = \varepsilon \frac{\frac{a}{\varepsilon} - x}{\frac{a}{\varepsilon} - x} = \varepsilon \Rightarrow \frac{r_1}{d_1} = \frac{r_2}{d_2} = \varepsilon. \quad (10)$$

Shunday qilib ellipsning ixtiyoriy nuqtasidan uning OY o‘qiga nisbatan bir tomonda joylashgan fokusi va direktrisasigacha bo‘lgan masofalar nisbati o‘zgarmas son bo‘lib, doimo  $\varepsilon$  ekssentrisitetiga teng bo‘ladi.

Ellips va uning xarakteristikalari quyidagi 28-rasmda ko‘rsatilgan.



28-rasm

**Misol:**  $x^2+4y^2=4$  tenglama ellipsni ifodalashini ko‘rsating va uning barcha xarakteristikalarini toping.

**Yechish:** Dastlab berilgan tenglamani ikkala tomonini 4 soniga bo‘lamiz:

$$\frac{x^2}{4} + \frac{y^2}{1} = 1.$$

Bu yerdan berilgan tenglama yarim o‘qlari  $a=2$  va  $b=1$  bo‘lgan ellipsni ifodalashini ko‘ramiz. Unda  $c^2=a^2-b^2=3$  bo‘lgani uchun qaralayotgan ellipsning



fokuslari  $F_1(-\sqrt{3},0)$  va  $F_2(\sqrt{3},0)$  nuqtalarda joylashganligini ko'ramiz. Bu natijalardan foydalanib, ellipsning eksentrisiteti va direktrisalarni topamiz:

$$\varepsilon = \frac{c}{a} = \frac{\sqrt{3}}{2}; \quad x = \pm \frac{a}{\varepsilon} = \pm \frac{\sqrt{3}}{2} \cdot \frac{1}{2} = \pm \frac{\sqrt{3}}{4}.$$

Ellipsga tegishli  $M(x,y)$  nuqtaning fokal radiuslari

$$r_1 = a + \varepsilon x = 2 + \frac{\sqrt{3}}{2}x, \quad r_2 = a - \varepsilon x = 2 - \frac{\sqrt{3}}{2}x$$

formular bilan topiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Вахвалов . S. V., Моденов P. S., Пархоменко A. S. Аналитик geometriyadan masalalar to'plami. Toshkent, 2006, 546 bet.
2. Ильин В. А. Позняк Э. Г. Аналитическая геометрия. М., Наука, 1981, с. 232.
3. Pogorelov A. V. Аналитик geometriya. Toshkent, O'qituvchi, 1983, 206-bet.
4. Постников М. М. Аналитическая геометрия. М., Наука, 1979. с. 336.
5. Цубербиллер О. Н. Задачи и упражнения по аналитической геометрии. Санкт-Петербург - Москва, Изд. Лан', 2003 г. стр. 336.
6. Клетеник Д. В. Сборник задач по аналитической геометрии. М. Наука. 1998,
7. Кравченко К. Решения задач по аналитической геометрии, [http:// www.a-geometr.v.narod.ru](http://www.a-geometr.v.narod.ru)

#### Elektron ta'lim resurslari

[www.tdpu.Uz](http://www.tdpu.Uz)

[www.lex.Uz](http://www.lex.Uz)

[www.ziyonet.Uz](http://www.ziyonet.Uz)

[www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)

[www.bilim.uz](http://www.bilim.uz)



## XURSHID DAVRON NAZMIDA SHE'RIY SAN'ATLAR JILOSI

---

*Ismoilova Sevinch Ismoil qizi*

*Termiz davlat universiteti*

*+998935176605*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston xalq shoiri Xurshid Davronning badiiy mahorati bilan bog'liq masalalar ilmiy o'rganilgan. Shoir she'rlarida bir vaqtda bir necha badiiy san'atlardan foydalanish va ularni badiiy-estetik jihatdan tahlil qilish ham ko'rsatib o'tilgan. Mahoratli shoirning badiiy tasvir vositalaridan ham keng ko'lamda foydalangani ham yoritilgan.

**Kalit so'zlar;** Metafora ,tashbih ,jonlantirish ,nido (apostrofa), ta'did, intoq, iltizom, mukarrar.

Sharq she'riyatida azaldan she'rning qonun-qoidalari shoir mahorati sirlari, badiiy san'atlar tasvir va ifoda vositalari hamda ularni qo'llash "ilmi sanoye" yoki "balog'at ilmi" da o'rganilgan bo'lib unda she'riy san'atning qimmatini baytda yaratilgan badiiy lavhalar, timsollarning yangiligi, betakrorligi bilan belgilangan.

“Badiiy san'atlar sharq mumtoz adabiyotining ham o'ziga xosligi, milliyligi, latofati, rango-rangligi va ta'sirchanligini ifodalovchi tasvir vositasidir.”

[1:354]

Bugungi zamonaviy o'zbek adabiyotida barakali ijod qilayotgan serqirra istedod egalaridan biri Xurshid Davrondir. U uchun she'r yozish uning ichki ehtiyojiga aylangan.

Erk guli bor derlar, buvijon,  
Shul gul haqida menga so'ylab ber,  
O , bolajon , bu sirni bilsang,  
G'am kelar – u diling qisadi.

[2:35]

Bu misralarda nido san'ati **bolajon** , **buvijon** so'zlarida aks etgan.

Erib ketar xira tumanlar,  
Kapalakdek uyg'onar yalpiz  
Osmonda daryo bo'lib tuyular  
O'tlar uzra chopqillaydi ko'z  
Va tushlarga kirar adir bu oqshom



Ko'rinib turibdiki , she'rda o'xshatish , metafora va jonlantirish san'atlaridan foydalanilgan va bu san'atlar bir-biriga bog'lanib kelgan. Shoir ular vositasida aloqasiz tushuncha , hodisalarni uzviy birlashtirishga erishadi.

Shoir ijodida o'zbek adabiyoti taraqqiyotida yuksak o'rinda turgan shoir va adib Oybekka bag'ishlangan "Oybek" she'ri ham alohida mavqega ega. Ikkita to'rtlikdan iborat ikkinchi qismda dastlab o'tmishda shoirlar she'rni "qush tili" deyishgani eslatiladi. So'ngra Oybek she'rni "yulduz kiprigi"deya ta'riflagani ta'kidlab o'tiladi va "Oybek O'zbekistonning kiprigi edi," –deyiladi, ya'ni O'zbekiston ko'zga , Oybek uning kiprigiga o'xshatiladi.

She'r : "So'nggi dam boshida so'narkan osmon,

Shoir ko'zlarini berdi osmonga " - deb tugallanadi. She'rda Oybekning ko'zlari beg'ubor , katta osmonga o'xshatiladi. Bu chiroyli tashbeh Oybekning jismiga ham, hayot yo'liga ham juda mos keladi.

Bizlar qaysi o'g'ilmiz,

Aytgin, zamondosh o'rtoq,

To'g'ichmi, o'rtanchami,

Yo kenjami – o'ylab boq?!

Bu misralarda esa ta'did san'ati to'ng'ich , o'rtancha , kenja so'zlari vositasida yuzaga kelgan. Shu o'rinda muallifning maqsadi ayon bo'ladi. U ko'hna rivoyatlarni naql qilish orqali mustamlaka bo'lib yashashga ko'nikkan kishilar qalbida erk , ozodlikka intilish istagini uyg'otmoqchi bo'ladi.

"Xurshid Davron she'rlaridagi obrazlar, tashbeh, metaforalar voqelikning o'zidan olingan sun'iy tarzda to'qilmagan. Ularning aksariyati o'tmish bilan bog'liq ."

[3:15]

Bir chetida bahor-u,

Bir chetida saraton.

Bir yog'ida tun cho'kar,

Bir yog'ida balqar tong.

[4:8]

Ushbu satrlarda takrorlanib kelgan "Bir" so'zi iltizom san'atini yuzaga keltirgan.

Devor dedi : - Ortda men,

Demak, ey xalq , olg'a bos.

Mazkur misralarda esa mahoratli shoir intoq san'- atidan foydalangan , ya'ni jonsiz narsa devorning tilga kirishi shu san'atni yuzaga keltirgan.





O'layotgan otning qorachig'ida  
Cheksiz-cheksiz yam-yashil qirlar  
[5:23]

Quyidagi satrlarda **cheksiz** so'zining shu holatda takror kelishida **mukarrar** san'ati yuzaga kelgan.

Xulosa qilib aytganda, Xurshid Davron o'zining she'riyatida faqatgina o'xshatish asosidagi san'atlar bilan cheklanib qolmasdan, jonlantirish, takroriy san'atlardan ham foydalanadi, bu esa o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri bo'lgan X.Davronning yuksak badiiy mahoratga ega ekanligidan va tahsinga loyiq she'rlari bilan xalq qalbiga kirib borgan ijodkor ekanligidan darak beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. T.Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. –Toshkent O'zbekiston – B-354
2. X.Davron .Bahordan bir kun oldin . She'rlar, rivoyat ,tarjimalar. Toshkent:Sharq 1997.B-35
3. Abdulla Ulug'ov . Qalb qandili: Adabiy-tanqidiy ocherk. Toshkent-Akademnashr 2013.B-15
4. X.Davron. Vatan haqidagi yetti rivoyat .Bobolar mozori – 1989. B-8
5. X.Davron .Bolalikning ovozi .Toshkent.G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san 'at nashriyoti . 1986.B-23.



## SHE'RIY SAN'ATLAR JOZIBASI

---

*Ibragimova Dilovar*

*Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi  
fakulteti 1-bosqich talabasi*

**Anotatsiya:** Mazkur maqolada ayrim she'riy san'atlarning shoir va yozuvchilar ijodida qo'llanilishi va o'rni haqida fikr yuritilgan. Ushbu ilmiy maqola she'riy san'atlarning badiiy -estetik jihatlarini tahlil qilinadi. Quyida keladigan fikrlar jamlanmasida iste'dodli , serqiraa ijodkor Sirojiddin Sayyid, mumtoz adabiyotning salotini Alisher Navoiy va shoirlar ustodi Mavlono Lutfiy ijodidan na'munalar keltirilish orqali badiiy san'atlar jozibasi aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** Mubolag'a, she'riy san'atlar , irsoli masal , nazm , nasr, g'azal , tamsil, istiora, kinoya , ruju, tashbih, husni ta'lil , talmeh, tazod

Barchamizga ma'lumki qadim davrlardan beri adabiyot deb atalmish bo'stonning gullari yashnab, buloqlari yanada chuqurroq qaynashda davom etyapti .Adabiyot- bu mo'jizaviy xazina va mana shu xazinaning bisotini nasr va nazm deb atalmish siym-u zarlar tashkil qiladi. Keling unda ushbu xazinaning **nazm** deb atalmish bir qismiga e'tibor qarataylik.

Nazm -bu she'rlardir. She'rlarning jozibasi , go'zalligi eng asosiy negizi bu **she'riy san'atlar** hisoblanadi. She'rning qanchalik mazmunliligi, betakrorligi va yorqinligi albatta shoirning yuksak didi va mahoratiga bog'liqdir. Nazm go'zal bo'lishi uchun she'riy san'atlardan to'g'ri foydalanish ularni she'r mavzusiga xos va mos tarzda qo'llay olish ular orqali kitobxonning yuragiga joylashib olish hech gap emas. She'riy san'atlardan foydalanish qadim davrlardan qo'llanilib va rivojlanib kelmoqda, ayniqsa buyuk mutaffakkir ,g'azal mulkining sulltono bo'lmish **Alisher Navoiy** davrida va ulug' mutaffakkir **Mavlono Lutfiy** davrida eng yuqori cho'qqilarni zabt etdi. O'z she'rlari, g'azallari ,ruboiy va tuyuqlarni ularning go'zalligini, so'z va uning sehridan to'g'ri foydalanish yo'li bilangina namoyon qila olishgan.

Zamonmizning yetuk va didli shoirlarimizdan biri hisoblangan Sirojiddin Sayyid ham o'zining betakror va purma'no she'rlarida she'riy san'atlarga murojaat qilgan . Mumtoz va zamonaviy adabiyotimizda muhim o'rin tutgan va eng ko'p qo'llaniladigan bir qator san'atlarni sanab o'tadigan bo'lsak ular **tazod , talmeh , tashbih , istiora, husni ta'lil, mubolag'a ,irsoli masal , tamsil , kinoya , ruju** va



boshqa bir necha xil san'atlarni aytib o'tishimiz mumkin. Yuqorida keltirilganlar san'atlardan **husni ta'lil** va **mubolag'a** san'atlariga to'xtalib o'tamiz va Sirojiddin Sayyid she'rlarida ushbu san'atlarning qay darajada yuksak mahorat bilan qo'llanilganini aytib o'tamiz.

**Husni ta'lil** san'ati arabcha so'zdan olingan bo'lib "chiroyli dalillash" degan ma'noni anglatadi. Yanada tushunarliroq qilib aytadigan bo'lsak biror bir hodisani chiroyli qilib ta'riflab berish degani. Masalan turkiy adabiyot so'z san'atining ustoz va buyuk mutaffikiri **Alisher Navoiyning** quyidagi baytiga nazar solamiz.

Charx tong otkuncha yig'lar mehrin yeldin yoshirub,

Go'yi ul sargashtaning ham bir musofir yori bor .

Ya'ni dunyo tong otguncha , qorong'uda mehri va sevgisini yeldan ya'ni shamoldan yashirib yig'laydi, go'yo u sargashtaning ham musofirlikda bir yori bordur degan fikrlarni xusni ta'lil san'atidan foydalanib yozadi. Dunyo yig'isining sababi bor va dalili shundan iboratki uning yori bor va u yor undan uzoqlarda, shuning uchun u yor firoqida sog'inchdan kuyib yig'laydi. Biz esa charxni yor ya'ni inson obraziga , yoridan uzoqlarda ,sog'inchdan to'lg'anoyotgan tunlarini bezovtalik va ko'z yosh bilan o'tkazayotgan yosh oshiq yigit obraziga almashtiramiz . Oddiy voqeliklarni ham she'riy san'atlar jozibasidan foydalanib ajib badiiy ijod mahsuliga aylantira olamiz.

Endi muhim san'atlardan biri hisoblangan MUBOLAG'A san'atiga va uning Sirojiddin Sayyid ijodida qo'llanishiga to'xtalsak.

**Mubolag'a** bu arabcha so'zdan olingan bo'lib "**kuchaytirish**", "**kattalashtirish**" degan ma'nolarni bildiradi ya'ni bo'lmagan narsalarni bo'ldirish yoki voqelikni judayam orttirib yuborgan holda ifodalash san'atidir. Misol sifatida S.Sayyidning " Vatanim " she'ridan parcha keltirib ifodalaymiz.

Masalan :

Quloq solsam shivirlagay

Xatto toshlaring .

Oy-u quyosh, kamalaklar

Ko'z-u qoshlaring

Beshigimni tebratgandir

Qaldirg'ochlaring,

Oy-u quyosh ko'rpa solgan

Ayvonim ,Vatan.



Ushbu she'r na'munasida ham Mubolag'a san'ati qo'llanilgan.

Agar nazmdagi jumalarga e'tibor beradigan bo'lsak, inson aqliga sig'maydigan o'xshatish va mubolag'alar qo'llangan. Ya'ni toshlar, oy, quyosh, kamalak shivirlamaydi, bola beshigini qaldirg'och tebratolmaydi mana shu kabi voqeliklarni mubolag'aga ajoyib qilingan solingan na'munalarini ko'rishimiz mumkin shoir ijodida.

Bundan tashqari yana misol keltiradigan bo'lsak S.Sayyid o'zining "Uyingdagi beshiklaring" she'rida Mubolag'a san'atining yorqin na'munalariga murojaat qilgan.

Buncha munglig' bu dunyoning soylari,  
Soylarida yig'lab borar oylari.  
Sarg'aymishdir ko'nglim qolgan joylari,  
Yulduzlari kumush-kumush yig'laydi.

Ushbu parchani muhokama qiladigan bo'lsak, hayotiy faktlar va na'munalar ko'zi bilan qarajak, bu dunyoning soylari munglig' bo'lmaydi, oylar hech qachon yig'lamaydi, ko'ngil bu mavhum tushuncha va u hech qachon sarg'aymaydi. She'rning go'zalligi va ta'sirchanligini oshirish uchun mana shunday ajoyib mubolag'a na'munalaridan foydalangan, serqirra ijodkorimiz Sirojiddin Sayyid.

Ushbu san'at faqat she'r va g'azallarda emas balki dostonlarda ham o'z ifodasini topgan. Masalan milliy dostonimiz "Alpomish"ni oladigan bo'lsak unda juda ham ko'p mubolag'a san'atidann qo'llanilgan. Alpomishni chuqurga tushib ketganida uni oti Boychibor o'z dumini tashlab qutqarib olishi, yoki yoshgina yetti yoshar bolaning o'n to'rt botmonli yoyni ko'tarib otishi, do'sti Qorajon bilan salomlashganda uning qovurg'alarini sindirib yuborishi bularning barchasi aqlga sig'mas hodisa ekanligi bir tomondan kitobxonni shoshirib qo'ysa, ikkinchi tomondan asarning qiziqarliligini va voqealar rivojining tez su'ratlarda qizg'in borishini ta'minlaydi.

Firoq isitmasi andoq tanimdan o't chiqorur,  
Ki gar tabib iligim tutsa, barmog'i qabarur

(LUTFIY)

Mavlono Lutfiyning ushbu g'azalida ham Mubolag'a san'atining ajoyib na'munasi ko'rsatilgan. Ya'ni firoq, ayriliq isitmasidan jonimdan o't ya'ni olov



chiqar , ushbu dardimni bilish uchun qo'limni ushlagan tabibning qo'li jarohatlanur degan aqlga sig'mas mubolag'alar keltirib o'tadi.

Mubolag'a san'ati nafaqat qadim davr mumtoz adabiyotida balki hozirgi zamonaviy adabiyotimizda ham keng qo'llanilib kelinmoqda. Sababi ushbu san'at asar qizg'inligini, voqealar rivojining keskirligini oshiradi. Hozirgi kunda ushbu san'at hajviy asarlarda , keng qo'llanilib kelinmoqda. Ushbu san'atning badiiy adabiyotimizda o'rni juda beqiyos. Nafaqt mubolag'a balki boshqa san'atlar ham badiiy adabiyotimiz uchun muhim rol o'ynaydi va nasr va nazmning poydevori desak mubolag'a bo'lmaydi.

#### **Foydalanilgan manbalar:**

Anvar Hojiahmedovning “Mumtoz badiiyat malohati” asari. “Шарк”  
Нашриети Тошкент-1999



## TOG'AY MURODNING "OT KISHNAGAN OQSHOM" ASARINING BADIY TAHLILI

---

*Sa'dullayeva Ruxshona*

*O'zbekiston - Finlandiya Pedagogika*

*Instituti filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi*

*1-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: Usarova Laylo*

**Annotatsiya:** asardagi syujet tushunchasi, sheva tilining o'ziga xosligi va asarning subyektiv holati.

**Kalit so'zlar:** syujet, tugun, yechim, voqealar rivoji, kulminatsiya, sheva tili va bir nechta badiiy unsurlar.

Adabiyotimizda xalqchil, ommabop, har doim sevib o'qiladigan asarlar ko'p. Lekin ular orasida xalqning tiliga mos keladigan, xalq ichida yozilganlari juda kam. Bilamizki, milliy adabiyotimizning serqirra ijodkori Tog'ay Murod aynan shunday yozuvchilardan. U Surxon vohasida tug'ilgan. Va aynan asarlarida sheva tili ustunlik qiladi. Tog'ay Murodning mashhur asarlari ko'p. Lekin uning bir asari men uchun haqiqiy " hayot kitobi" desam adashmagan bo'laman. Bu kitob "Ot kishnagan oqshom" deb nomlangan. Nomining o'zida yozuvchining tafkkurini his qildim. Bu asarni o'zimning ta'birimcha badiiy tahlil qilmoqchiman. Bu asar orqali yozuvchi adabiyotimizga milliylik ruhini kiritgan. Ushbu asarda sevgi, yurt, millat kabi tushunchalar bo'yab-bejalmasdan, balki tabiiy, oddiy, kamraron tarzda ifodalangan. Insonlar va hayvonlar o'rtasidagi munosabatlar, tuyg'ular, umumiy olganda ichki kechinmalar kitobxonlar qalbiga bir atom bombasidek kirib boradi va kitobxon qalbini "tiriltiradi". Asar kompozitsiyasi juda murakkab emas. Shunchaki oddiy. Lekin shunchalik mahorat bilan yozilganki, kitobxon yengil qabul qiladi, mag'zini tez chaqadi.

Asar syujeti ham o'ziga xos. Oddiy bo'lgan murakkab syujet. Undagi tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya, konflikt, yechim, singari syujet unsurlari asarda mahorat bilan ko'rsatib berilgan. Meni hayratga solgan jihati shundaki syujet unsurlari bir vaqtda voqealarni bog'lab, asarning darajasini oshirgan. Asaridagi obrazlar ham o'ziga xos. Har bir yozuvchi asarida obrazlarni o'zgacha nomlab asarning qiymatini oshirsa, Tog'ay Murod personajlarning ismini xalq ichidan, oddiy insonlar orasidan tanlaydi. Bu holat asarning qiymatini bir necha yuz ming barobar



ko'targan. Ya'ni xalq orasida har doim ham bir-biriga mos juftliklarning ismlari o'zgacha qo'yilmaydi. Tog'ay Murod shu jarayondan qochgan holatda asarlaridagi qahramonlarni nomlagan. Albatta, oddiy insonlar taqdirini yoritgan asar. Asardagi Ziyodulla chavandoz obrazi orqali konkret tarzda xo'rlangan va xorlangan xalq obrazi gavdalantirilgan.

"Birodarlar, biz hamisha adolat, adolat deymiz. Tildan qo'ymaymiz. Adolatsizlikni ko'rib, xunibiyron bo'lamiz. Hayotdan, taqdiridan noliymiz. Adolat yo'q, adolat osmonda. Yo'q, birodarlar, adolat yerda. Oyoqlarimiz ostida! Adolat tuproqqa qorishib yotibdi! Adolatni kim bunday xor qilyapti? Biz o'zimiz!..[1] Bu mening e'tiborimni tortgan jumlar. Ha, albatta, adolat insonlar tomonidan o'rnatilib, insonlar tomonidan yoqotiladi. Tog'ay Murod ham xuddi shu holatni tasvirlab bermoqchi bo'lgan va buning uddasidan chiqqan. Men bu asarni bir kitobxon sifatida o'qir ekanman, ot va inson o'rtasidagi munosabatlar meni to'lqinlantirib yubordi. Voqealar ko'z o'ngimda bevosita jonlandi. Bu ijodkorning yutug'idir. Bir ijodkorning asarini minglab kitobxonlar hissiz, asardagi qandaydir holatni o'ziga ta'sir ettirmasdan o'qigandan ko'ra bittagina kitobxon qalbi jo'shib, hissiyot bilan, goh yig'lab, goh kulib o'qigani ming marta afzal. Mana bu yozuvchining chinakam yutug'i. Tog'ay Murod asarlarida men buni his qildim.

"Obro'yimiz ketib qolishidan, yo amalimizdan ayrilib qolishdan qo'rqamiz. Qo'y, qo'ya ber, to'g'ri gap tuqqaniga yoqmaydi, deya qo'l siltaymiz...[2] Oddiygina bir jumlada oddiy insonning ma'naviyatini ko'rishimiz mumkin. Yozuvchi buni birgina ibora orqali ochib bera olgan. U qisqa yozgan, lekin ixcham va lo'nda ifodalagan. Zero, Tilab Mahmudov aytganidek qisqa yozish ona tili kambag'alligidan emas, boyligidan darak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.A. Ulug'ov "Adabiyotshunoslik nazariyasi" Toshkent - 2017
- 2.G'. G'ulom nashriyot matbaa uyi
- 3.T. Murod "Ot kishnagan oqshom" asari  
Gulinoz Anvarovna taqrizi



## PROCESSING OF DATA OBTAINED BY REMOTE SENSING OF THE EARTH

---

***S.M.Shukurova***

*associate professor (PhD) of the "Aeronautical Systems" department. Tashkent State Transport University, Faculty of Aviation Transport Engineering*

***Sh.X.Satimov***

*master student of "Aeronautical Systems" department. Tashkent State Transport University, Faculty of Aviation Transport Engineering*

**Abstract.** Processing of data obtained by remote sensing of the Earth is a critical component of the use of satellite-based sensors for environmental monitoring and research. Remote sensing data processing involves the conversion of raw sensor data into meaningful and actionable information, which can be used to study and monitor the Earth's environment. This article will provide an in-depth overview of the processing of remote sensing data, including the steps involved, the challenges and limitations, and the advancements in technology and techniques.

**Key words:** raw sensor, measurements, Earth's surface, atmospheric correction, image enhancement.

### **Introduction**

Remote sensing data processing begins with the acquisition of raw sensor data from satellite-based sensors. These sensors capture electromagnetic radiation reflected or emitted from the Earth's surface and atmosphere, which is then converted into digital data. The raw sensor data may include images, spectral measurements, and other types of data, depending on the specific sensor and its capabilities. The processing of remote sensing data involves several key steps, including pre-processing, image enhancement, feature extraction, and classification. Each of these steps plays a crucial role in converting raw sensor data into useful information for environmental monitoring and research.

### **Pre-processing of Remote Sensing Data**

The pre-processing of remote sensing data involves several important tasks, including geometric correction, radiometric correction, and atmospheric correction. Geometric correction is necessary to remove distortions and inaccuracies in the sensor data caused by factors such as sensor orientation, Earth's topography, and atmospheric effects. Radiometric correction is used to remove variations in brightness and contrast caused by sensor calibration errors and atmospheric





conditions. Atmospheric correction is necessary to remove the effects of the Earth's atmosphere on the sensor data, allowing for accurate measurements of surface properties.

### **Image Enhancement**

Image enhancement techniques are used to improve the visual quality of remote sensing images and make them more suitable for analysis and interpretation. Image enhancement may involve tasks such as contrast stretching, histogram equalization, and spatial filtering to improve the clarity and interpretability of remote sensing images.

### **Feature Extraction**

Feature extraction involves the identification and extraction of specific features or patterns from remote sensing data. This may include tasks such as edge detection, texture analysis, and object delineation to identify and extract features such as land cover types, vegetation density, and urban infrastructure from remote sensing images.

### **Classification of Remote Sensing Data**

Classification is a critical step in remote sensing data processing, as it involves the categorization of pixels or image objects into different classes or categories based on their spectral or spatial properties. Classification techniques may include supervised or unsupervised methods, where training samples or statistical algorithms are used to assign pixels to specific classes such as land cover types, land use categories, or environmental features.

### **Challenges and Limitations of Remote Sensing Data Processing**

While remote sensing data processing offers many advantages for environmental monitoring and research, there are also several challenges and limitations that need to be considered. For example, the processing of large volumes of remote sensing data requires significant computational resources and specialized software tools, which may not be readily available to all researchers and stakeholders. Additionally, the interpretation of remote sensing data requires specialized skills and knowledge of environmental processes, which may limit the accessibility and usability of the processed data.

Furthermore, remote sensing data processing is susceptible to errors and uncertainties caused by factors such as sensor noise, atmospheric effects, and variations in surface properties. These errors can affect the accuracy and reliability of the processed data, requiring careful validation and quality control measures to ensure the integrity of the results.



Advancements in technology and techniques have led to significant improvements in the processing of remote sensing data. For example, the development of advanced image processing algorithms and machine learning techniques has allowed for more efficient and accurate extraction of features from remote sensing data. Additionally, the availability of cloud computing resources and open-source software tools has made it easier for researchers to access and process large volumes of remote sensing data. Ongoing research and development efforts are focused on addressing the challenges and limitations of remote sensing data processing. For example, efforts are underway to improve the accuracy of atmospheric correction techniques, develop standardized validation procedures for remote sensing products, and enhance the interoperability of remote sensing data formats and standards.

### **Conclusion**

The processing of data obtained by remote sensing of the Earth is a complex and multi-faceted task that plays a crucial role in environmental monitoring and research. The steps involved in remote sensing data processing, including pre-processing, image enhancement, feature extraction, and classification, are essential for converting raw sensor data into meaningful information for studying and monitoring the Earth's environment. While there are challenges and limitations associated with remote sensing data processing, ongoing advancements in technology and techniques are continuously improving the capabilities of this important tool for environmental research and management. By addressing these challenges and leveraging new technologies, remote sensing data processing can continue to provide valuable insights into the Earth's dynamic processes and support informed decision-making for environmental conservation and management.

### **The list of used literature**

1. Anderson, M. G., & Bates, P. D. (2018). *Modeling Methods for Marine Science*. Cambridge University Press.
2. Rosenzweig, M. L., & Abramsky, Z. (2019). *Ecological Disturbance: A Comprehensive Framework for Understanding Natural and Anthropogenic Effects on Terrestrial and Aquatic Systems*. Cambridge University Press.



## TARIXIYLIK JIHATDAN O'ZBEK TILI LEKSIKASI. UMUMIY VA CHEGARALANGAN LEKSIKA

---

*Uzoqova Zarina*

*G'ijduvon tuman 2- son Kasb-hunar maktabining*

*Ona tili fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Soʻz va iboralarni zamonaviy qatlamga kirishida ularning nutqda oz-koʻp ishlatilishi yoki bu qatlam soʻzlari til jamoasining barcha aʼzolari nutqida barovar ishlatilishini hisobga olish yaramaydi, Masalan, terminologik leksikaga oid soʻzlarning isteʼmol doirasi chegaralangan.

**Kalit soʻzlar:** Oʻzbek, Soʻz va iboralarni, nutq, zamon, eski soʻz, qatlam, leksiya, yangi soʻz, lugʻat.

Oʻzbek tili leksikasining chegaralangan qatlami: 1) zamonga koʻra; 2) territoriyaga koʻra; 3) ijtimoiy holatga koʻra uchga boʻlib oʻrganiladi,

Tilda ayrim soʻzlar eskirib isteʼmoldan chiqsa, maʼlum talablar asosida yangi soʻzlar paydo boʻladi.

Hozirgi oʻzbek adabiy tili nuqtai-nazaridan eskirgan soʻzlarning jami eski qatlam (eski leksika), yangi soʻzlar jami yangi qatlam (yangi leksika) deyiladi,

Bu ikki qatlamdan tashqari, lugʻat sostavida adabiy til uchun, odatdagi, eskilik va yangilik boʻyogʻiga ega boʻlmagan soʻzlar qatlami ham bor Bu qatlam zamonaviy qatlam yoki neytral qatlam deyiladi.

Demak, zamon nuqtai-nazaridan oʻzbek tili leksikasi uch asosiy qatlamga boʻlinadi.

1. Zamonaviy qatlam
2. Eski qatlam
3. Yangi qatlam,

Eskilik va yangilik boʻyogʻiga ega boʻlmagan soʻzlar zamonaviy qatlam deyiladi. Oʻzbek tili leksikasining asosini shu qatlimga oid soʻzlar tashkil etadi.

Soʻz va iboralarni zamonaviy qatlamga kirishida ularning nutqda oz-koʻp ishlatilishi yoki bu qatlam soʻzlari til jamoasining barcha aʼzolari nutqida barovar ishlatilishini hisobga olish yaramaydi, Masalan, terminologik leksikaga oid soʻzlarning isteʼmol doirasi chegaralangan. Ammo, ular zamonaviy hisoblanaveradi.



Funksional-normativ, ya'ni zamonaviy soʻzlar bilan bir qatorda hozirda kam iste'mol boʻlib qolgan eski qatlam ham uchrab turadi. Eskirgan soʻzlarga ikki tip hodisa:

1. Hozirgi til nuqtai-nazaridan soʻz ham, u nom boʻlib predmet, hodisa ham eskirgan iste'moldan chiqqan mirshab, amir, arbob. Bunday soʻzlar istorizmlardir.

2. Narsa va hodisaning, tushuncha yoki tasavvurlarning oʻzi emas, balki uning nomi eskirgan boʻladi. Handasa (geometriya), sarf (morfologiya), nahv (sintaksis). Bunday soʻzlar arxaizmlardir,

Demak, eskirgan soʻzlar ikki koʻrinishga ega:

1. Istorizmlar; 2. Arxaizmlar

Davr oʻtishi bilan muayyan paytda zamonaviy hisoblangan baʼzi predmetlar qoʻllanishdan qoladi. Natijada, bu narsi va hodisalarni ifodalovchi soʻzlarni ishlatish ham susayayadi va asta-sekin til lugʻat sostavining aktiv qatlamidan passiv qatlamga oʻtadi.

Shu sababli bu tip soʻzlar oʻtmish davr fakti-istorizm deb yuritiladi. Istorizmlarning leksik frazeologik koʻrinishlari mavjud.

Eskirib iste'moldan chiqqan oʻz sinonimiga ega boʻlmagan soʻzlarga leksik istorizmlar deyiladi: omoich, choʻri, yuzboshi. Istorizmlarning yuzaga kelishi tabiat va jamiyatdagi oʻzgarishlar, yangilanish va eskirishlar bilan aloqadordir. Istorizm eski lugʻat birligidir. Bu tip soʻzlar hozirgi davr kishisi uchun tushunilishi qiyin boʻladi. Ularni maxsus izohlar orqali anglash mumkin.

Uzbek tili leksikasidagi istorizmlarga misollar:

- ijtimoiy-siyosiy hayot bilan bogʻliq soʻzlar: podshoh, qul, quloq, batrak.
- mansab, amal unvonlar nomi: amin, arbob, zakotchi, udaychi, shotir.
- baʼzi hujjat nomlari: vasiqa, sanad, vakfnoma 4) maktab va maorif: mulla, xalfa, mudarris, haftiyak
- uy-roʻzgʻor buyumlari nomi: charh duq kajava, juvoz.
- oʻlchov, pul birliklari nomi: botmon, qadoq, tanob, arshin, tanga, qora pul.
- kiyim-kechak nomlari: choriq, kimxob, qalami, quloh va boshqalar.

Istorizmlarning bundan tashqari frazeologik semantik turlari ham mavjud.

Eskirib iste'moldan chiqqan, oʻz ekvivalentiga ega boʻlmagan iboralarga frazeologik istorizmlar deyiladi: madrasa tuprogʻini yalamoq, issiq-sovuq qilmoq, tarki dunyo qilmoq, soʻfi qilmoq va h.k.

Soʻzning yangi maʼnosi



Soʻz material tomondan eskirmay, maʼno tomondan eskiradi. Bunda soʻz Yangi davrda yangi maʼnoda qoʻllanaveradi. Uning oldingi maʼnosi oʻtmishga tegishli boʻlib qoladi. Bu semantik istorizm deyiladi:

rais-boshliq, tashkilot xodimi Soʻzning eski maʼnosi rais-diniy rasm-rusum nazoratchisi arbob-fan sohasida beriluvchi unvon

saroy-madaniy tadbirlar joyi oqsoqol-keksa, hurmatli boy-badavlat, serob, moʻl arbob-qishloq oqsoqoli, arestokrat

saroy-xon, podsho qarorgohi oqsoqol-mahalla boshligʻi boy-feodal sinf vakili Chogʻiashtiring: Boy choʻchib oʻzini chetga oldi (O). Dasturxonlar mevalarga boy. (M. Alaviya).

Istorizmlar koʻproq oʻtmish haqida hikoya qiluvchi zamonaviy asarlarda uchraydi. Bu bilan davr ruhi, koloriti beriladi

Istorizmlarda uslubiy boʻyoq soʻz koʻchma majoziy maʼnolarda qoʻllansagina paydo boʻladi. M: Oʻzi xon, soyasi sultom bu kishini. Bu student alifni kaltak deydi.

### **ARXAIZMLAR**

Eskirib isteʼmoldan chiqqan, ammo oʻz ekvivalentiga, sinonimiga ega boʻlgan soʻzlarga arxaizmlar deyiladi. Masalan, ulus (xalq), firqa (partiya), bitik (kitob), tilmoch (tarjimon).

Istorizmda predmet ham, nomi ham eskirgan boʻladi, arxaizmda esa predmet yoki hodisa zamonaviy boʻlib, ning utiish nomi eskiradi. Natijada, predmet yoki hodisa Yangi bilan yuritiladi. Tilda soʻzlarning arxaiklashishi asta sekin amalga oshadi, Arxaizmlarning zamonaviy dublet (sinonim)i bu soʻz ustidan funksional-normativ jihatidan gʻolib chiqqan soʻzdir.

Tilda eskirish turli koʻrinishda namoyon boʻladi; soʻz yoki soʻz maʼnolaridan biri eskirishi mumkin. Yoki soʻzning biror morfem boʻlagi eskirishi mumkin. Xuddi shunigdek tilda frazeologik iboralarning eskirishi kuzatiladi.

Shunga koʻra arxaizmlar, eng avvalo, uch katta guruhga bulinadi:

1) leksik arxaizmlar; 2) grammatik arxaizmlar; 3) frazeologik arxaizmlar,

### **LEKSIK ARXAIZMLAR**

Narsa va hodisalarning nomlaridan biri eskiradi: ulus (xalq), yozuq (gunoh) kabi.

Leksik arxaizmlar eskirgan hodisaning xarakterlga koʻra. Oʻz navbatida ikkiga boʻlinadi:

1) leksik arxaizmlar; 2) semantik arxaizmlar

Leksik arxaizm soʻzning, soʻz vazifasining zskirishi boʻlsa semantik arxmizm koʻp manoli soʻz maʼnolaridan birining eskirishidir. Bunda soʻz shakli eskirmaydi,



balki so`z semantik tarkibidagi semalardan biri eskiradi. So`z qobig`i endi o`sha ma`noni anglatmaydigan, ifodalamaydigan bo`lib qoladi. O`sha ma`noni anglatish so`zning hozirgi emas, o`tmish vazifasi hisoblanadi. Natijada so`zning o`sha manosi eskirgan, endilikda unutilgan bo`ladi. Masalan, afandi so`zi o`qituvchi ma`nosiga ega bo`lgan. Ammo bu ma`no hozir eskirgan. Anjuman so`zi bir kasb egalarining o`ziga xos yig`ilishi ma`nosini ifodalagan. Ozod so`zi bolalarni darsdan javob berilishi ma`nosini ifodalagan; Bolalar o`qishlarini to`xtatib domlaga qaradilar. – Ozod!–deb yubordi domla (S. A.)

Semantik arxaizmlar so`z va uning leksik ma`nosi bilan bog`liq bo`lganligi uchun uni leksik-semantik arxaizmlar deb ham yuritiladi.

Leksik arxaizmlarga so`zning shakliy va talaffuz xususiyatlari bilan aloqador bo`lgan leksik-fonetik leksik-orfografik shunmgdeq aktsentopogik arxaizmlar ham kiradi.

Aktsentologik arxaizm so`z urg`ularidagi o`zgarishlar natijasida sodir bo`ladi. So`z urg`usi vaqt o`tishi bilan boshqa bo`ginga ko`chadi. Urguning oldingi holati eskiradi: simvol, epigraf so`zlari rus tilida avvallari simvol, epigraf deb talaffuz qilingan. Bu talaffuz hozir eskirgan, arxaik hisoblanadi.

Inklyuziv ta'limda maktabdagi jismoniy sharoit ham katta o'rin tutadi. Oddiy qilib aytadigan bo'lsak, barcha maktablar eshigiga o'quvchilar zinapoyalar orqali kirib boradilar. Lekin bu zinapoyalardan maxsus aravachalarda yuradigan nogiron bolalar ko'tarila olmaydilar, hatto qo'ltiqayoqda yuradigan bolalar ham, qiynalishlari mumkin. Demak, zinapoyalardan ham , eshiklardan ham sog'lom bolalar bilan birga nogiron bolalar ham bemalol o'tishlari uchun qulay sharoit yaratilishi shart. Bundan tashqari, sinf xonalari va laboratoriyalardagi maxsus o'rindiq hamda moslamalar ham nogiron bolalarga mos bo'lishi kerak. O'qishga imkon yaratish ham juda muhimdir. Yozish qobiliyatlarida buzilish mavjud bo'lgan bolalarga tovush va tasvirni kattalashtirish etarli bo'lmaydi. Bunda o'quvchilar imo-ishora yoki Brayl xatini puxta o'rganishlari kerak. Aqliy nuqsoni bor bolalar soddalashtirilgan yozma yoki og'zaki informatsiyani olishlari kerak. O'quv rejasini bunday differensiyalash o'qituvchilarda o'z ishlariga ijodiy yondashishni taqozo etadi. Maktab ma'muriyati buning uchun o'qituvchilarga imkon yaratib berishi kerak. Bunday ijodiy yondashuv o'quv rejasiga qattiq talab qo'yilgan joylarda birmuncha qiyinchilik tug'dirishi mumkin. "Bolalarni qutqaring" (Buyuk Britaniya) tashkiloti, uning boshqa mamlakatlardagi tashkilotlari inklyuziv ta'limdagi asosiy



to'siqlarni xalq ta'limi tizimi va maktablarga qo'yadi. Bizning fuqarolik jamiyatiga qadam qo'yayotgan davlatimizda bunday to'siqlarni o'z-o'zini boshqarishning milliy modeli bo'lgan mahallalarda hal etish mumkin. E'tiborsizlik (1), yashirish (2), mablag' masalasi (3), sharoitga moslashmaslik (4), kambag'allik (5), sinfda o'quvchilar sonining ko'pligi (6), kamsitish (7), qaramlilik (8), kutilmagan holatlar (9) kabi to'siqlarni mahallalarda bemalol bartaraf etsa bo'ladi, yoki bu muammolarni hal etishni quyidagi jadval asosida shunday taqsimlash mumkin (sxemaga qarang).

Bir qancha davlatlar tajribasi, jumladan, Norin (Qirg'iziston) va Qo'qon shaxarlaridagi inklyuziv ta'lim loyihasining tajribasi maxsus ehtiyojli bolalarni sog'lom tengqurlari bilan birgalikda o'quv-tarbiya ishlarida har tomonlama faol ishtirok etishlari mumkinligini tasdiqladi.

Inklyuziv ta'lim alohida yordamga muhtoj bolalarni normal rivojlanishdagi bolalar bilan teng huquqlilik asosida ta'lim olishidir. Bunday ta'limning diqqat markazida imkoniyati cheklangan bola turadi. Bunday ta'limning diqqat markazida imkoniyati cheklangan bola turadi. Integratsiya tushunchasi ingliz tilidan olingan bo'lib, "integrative" – qo'shiluvchi, birlashuvchi, "integratsion" – qo'shilish, birlashish degan ma'nolarni anglatadi. Inklyuziv ta'lim esa integratsiyani o'z ichiga oladi. Demak, barcha bolalarning ehtiyojlarini hisobga oladigan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan, ijtimoiy adolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilib olgan ta'lim tizimi inklyuziv ta'lim deyiladi. Inklyuziv ta'limning ijtimoiylashuvida nogiron bo'lgan hamda sog'lom bolalar o'rtasidagi o'zaro aloqa va munosabat ko'zda tutiladi. Har bir imkoniyati cheklangan bolani umumta'lim muassasalariga da'vat qilinganda bolada qo'rquv yuzaga keladi. Sababi shunda-ki, ular alohidalikka o'rganib qolishgan. Ya'ni o'z tengdoshlari bilan munosabatga kirishishdan cho'chidi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;**

1. Pedagogika. // M.To'xtaxodjayeveaning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
2. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. - T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
3. Yuzlikayeva E., Axmedova M., Qurbonova G., Sh.Tashmetova. Umumiy pedagogika. – T.: TDPU, 2012.





## HOZIRGI KUNDA JAMIYATDAGI HUQUQIY ONG VA HUQUQIY MUNOSABATLAR

---

*Nabiyev Fazliddin Farxodjon o'g'li*  
*Andijon davlat pedagogika instituti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi kunda bizning hamjamiyatimizda fuqorolarning huquqiy ong va ularning munosabatlari haqida qisqacha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** yo'l patrul xodimi, Aflotun, qadimgi Bobil

**Abstract:** This article provides brief information about the legal consciousness of citizens and their relations in our society today.

**Key words:** road patrol officer, Plato, ancient Babylon

**Kirish.** Harbir davlat borki unda qonunlar, huquq va majburiyatlar bolib, ular davlat va jamiyat o'rtsida yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Ushbu qonunlar turli tuman bo'lib , jamiyatning turli sohalarida qo'llaniladi. Bu qonunlar fuqaqrolar osoyishtaligini ta'minlashгаа qaratilgan bo'lsada ammo hozirgi kunda ayrim fuqarolarning bu qonunlarga beparvolik bilan qarash holatlarini kuzatish mumkin , ( ko'chada yo'l patrul hodimiga manaviy va jismoniy zarar yetkazish , hodimlariga vakolat doirasidan tashqaridagi vazifalarni yuklatayotgan boshliq , voyaga yetmasdan turib atrof muxitga va o'z sog'ligiga beparvolik qiliayotgan yoshlar yoshlar )\_ shular jumlasidandir . Ho'sh bu nimaning oqibatidan ? yuqorida sanab o'tgan holatlar uchun albatta yuridik jazo mavjud ammo bu jazo haqida o'zi umuman qilayotgan ishlarining oqibati haqida fikr yuritish nafaqat yoshlarimiz balki katta yoshdagi ayrim insonlarda ham kuzatilmoqda va bularning hammasi jamiyatimizdagi huquqiy ongning pasligidandir. Hosh uni qanday oshirish mumkin ? ozi qonunlar nima ? qonunlar nega bizga kerak ?

Bizga ma'lumki dastlabki qonunlar qadimgi Bobilga borib taqaladi va (Hamurapi qonunlari ) nomi bilan mashhur. Bu qonunlar ozining qattiyligi bilan nom qozongan bo'lib uni mabudlar irodsi bilan yaralgan deb ishonishgan va bu qonunlarga yuzlanadigan bo'lsak unda fuqarolar manfaati ustunligini shu qatorda bu qonunlar fuqarolar uchun chiqarilganini ko'rishgimiz mumkin, masalan : qulif buzari o'g'ri agar jinoyat vaqtida ushlansa buzayotgan eshigining tagiga ko'mib tashlangan. Bu esa davlatda ogirlik holatlatlari sonining kamayishiga juda katta yordam bergan .



Qadimgi davlatlar orasida ozining beqiyos sanat va madaniyati hamda falsafasi bilan ajraib turgan Yunoniston inson qadir qimmatini, uning ( Induid ) sifatida musaqil bir shaxs ekanligini ilgari surgan. Shu bilan bir qatorda “tartibli jamiyat uchun sifatli qoidalar kerak” tamoilini ham ko’zdan qochirmagan.

Barchamizga mashhur yunon faylasufi va shoiri Aflotun ( Platon ) aytganidek : Qonunni bilmaganlar va uning mohiyatini anglamaganlar qonunlarni bemani deb atashni hohlab qoladilar. Aflotun bu jumla orqali jamiyatda qonunlarni hamma bilishini agar bilmasa bu oxir oqibatta davlatga norozilik hisini uyg’otishini ilgari suradi. Qonunlarning sifati haqida ham aflotun nazaryasiga quloq solamiz : Qonunlarning qanchalik muhim va yaroqliligini ular yaratilgandan keyin jamiyat uchun olib kelgan foyda yoki ziyonidan anglash mumkin . Demak qonunlar xalq uchun yaratilgani va faqat xalq foydasiga ishlashi zarurligini anglatadi .

Konstitutsiyamizning 2 – moddasini eslaylik: XALQ DAVLAT HOKIMYATINING BIRDAN BIR MANBAIDIR DAVLAT O’RGANLARI VA MNSABDOR SHAXSLAR JAMIYAT VA FUQAROLAR OLDIDA MASULDIRLAR . Bundan ko’rishimiz mumkinki xalq davlat uchun muhim va davlat xalq uchun javobgar, xalq manfaatidan ustun chunki davlatning asosiy boyligi bu uning aholisi hisoblanadi .

Endi Respublikamiz fuqarolar va davlatga nazar solsak .Bizga malumki davlat va undagi tashkilotlar oz huquqlaridan to'la to'kis foydalanadi, biroq huddi shunday holatni fuqarolarning aksariyatidagina korishiz mumkin . Zero biz ikki taraflama aloqani yani, jamiyat va davlat ortasidagi aloqanin shakillantirmas ekanmiz, huquqlarimizning poymol qilinishiga tayyor turishimiz lozim . Bunday bo’lmasligi uchun esa oz huquq va majburiyatlarimizni anglashimiz shubhasiz shart va zarurdir . Bizning oz huquq va erkinliklarimizni yaxshi bilmasligimiz ayrim qo’shtirnoq ichidagi hukumat rahbarlarining o’z mansabini suvistemol qilishiga hamda koplak korrupsion holatlarga sabab bolmoqda .

Ozbekiston Respublikasida qonunlar uch turda organiladi bular davlatning asosiy qonuni konstitutsiyada keltirilgan qonunlar, qonun osti aktlari va konstitutsiyaviy qonunlar. Bulardan bizga keraglisi konstitutsiyada keltirilgan qonunlar va qonun osti aktlari, konstitutsiyaviy qonunlar bo’lsa O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan barvcha qonunlar, qarorlar va qonun osti aktlariga o'zgartirish vca qoshimchalar kiritish vazifasini bajarish uchun yaratilgan qonunlar .

Ho’sh biz bularning hammasini bilishimiz shartmi ? axir sud jarayonidagi sudyalalar ham adashgmaslik uchun o’z yo’nalishidagi qonunlarga ko’z yugurdirgan holda ish olib boradilar . bizda esa bunga ehtiyoj , mavjut emas . Biz davlat



organlaridan oz huquqlarimizni qonuniy ravishda isbotlashini eo'rashimiz zarur bunda ularning aytilgan og'zaki malumotlari emas balki rasmiy huquqiy hujjatlarga tayanishimiz lozim zero og'zaki malumotlar hechqanday yuridik kuchga ea emas va ularga tayanib ish ko'rish bizni ng o''z hohishimiz . Masalan ; siz biron davlat idoradsida faoliyat yuritasiz va sizdan vakolatingngizdan tashqari narsa qilishingizni so'rashyabdi yoki oyligigiz belgilangandan miqtordan pas chiqyabdi bu holatdasiz buning sababini va bu sabab huquqiy asosga ega ekanligiga ishonch hosil qilishinggiz zarur yoki do'kondan olgan mahsulotingngiz yaroqli emasligini sezsang giz uni qayta topshirish huquqiga degasiz agar sotuvchi maxsulot unga tegishli emasligini aytsa savdo cheki yordamida uni isbotlash imkoniga egasiz

Ammo mavjut huquqiy hujjatlar bilan tanishish oirqali fuqarolar oz huquqiy bilimlarini oshirishlari bilan bir qatorda huquqiy madaniyatlarini ham yukasltirishlari mumkin zaro huquqiy ong qanchalik yuqoyi bo'lsa huquqiy madaniyat ham shunchalik yuqori bo'ladi

Davlat huquqiy ongni yuksaltirishi uchun esa mavjut huquqiy hujjatlar ni xalq ommasiga chuqurroq yoyishi . Yangi qonunlar yuzasidan ko'proq madaniy marifiy tadbirlar shu jumladan koplav huquqiy musobaqalar ,ko'rik tanlovlar o'tkazishi lozim , zero fuqarolar o'z huquqlarini bilish,mas ekan jamiyatiz yuksalishi dargumon chunki oz huquqini anglash ozlikni abglash bilan barobar

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. 2009-yil X.T.Odilqoriyev. "Davlat va huquq nazaryasi". Darslik. "Sharq" nashriyoti.
2. 1998-yil U.Tadjixanov. A.Saidov. "Huquqiy madaniyat" 1-tom darslik. Akademiya nashriyoti
3. 2011-yil N.Saburov. Sh.Saydullayev. "Davlat va huquq nazariyasi" darslik TDYI nashriyoti.
4. <https://lex.uz/ru/docs/-4149765>.



## KONSTITUTSIYA-XALQCHIL DAVLAT, BARQAROR TARAQIYYOT VA FAROVON HAYOT ASOSI!

---

*Andijon davlat pedagogika instituti talabasi*

*Nabiyev Fazliddin*

*E-mail.fazliddinnabiyev19@gmail.com*

Biz jamiyatimizda bunday huquqiy madaniyatnishaqllantirishimiz kerakki, unga muvofiq Konstitutsiya va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquq vaerkinliklari,sha'niva qadr-qimmatini xurmat qilish majburiyat emas, balki kundalikqoida va odatgaaylanishishart. Muxtasar qilibaytganda,fuqarolarimiz qonunlarnibuzishda ko'ra, ularga amalqilishdan manfaatdor bo'lishlari lozim.

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti - Shavkat Mirziyoyev*

Mamlakatimizda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar insonning sha'ni,qadr-qimmat,huquq va erkinliklari bundan buyon barcha sohalarada ustuvor ahamiyat kasb etishini qat'iy qoidaga aylantirish, bir so'z bilan aytganda, "inson qadri uchun" g'oyasini hamda bugungi islohotlarning bosh tamoyili bo'lgan "Inson – jamiyat – davlat" degan tamoyilni konstitutsiyaviy qoida sifatida muhrlashga, xalq parvar davlat barpo etishga, inson huquq va manfaatlari himoyasini kuchaytirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Ma'lumki, o'tgan davr mobaynida Respublikamiz iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar, islohotlar, qanchadan-qancha bunyodkorlik ishlari amalga oshirilayotganligi hamda bevosita Konstitutsiyamizga bog'liqligi, huquqiy fuqarolik jamiyati qurishda hukumatimizning Konstitutsiya va qabul qilingan qonunlar asosida faoliyat olib borayotganligi, mustaqilligimiz bilan bir qatorda Konstitutsiyamizning qabul qilinganligini ham har yili nishonlanishi bejiz emas, albatta.

Shuni ta'kidlash lozimki, jamiyatimizda har qaysi oila va fuqarolarimiz hayotida qanday ijobiy o'zgarishlar sodir bo'layotgan bo'lsa, bularning barchasini Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan talab va qoidalarning hayotimizdagi amaliy ifodasi deb, qabul qilishimiz kerak albatta. Zero, Konstitutsiyamiz tarixan sinalgan umum insoniy, umumbashariy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan hujjatdir. Asosiy qonunimiz eng rivojlangan, taraqqiy topgan davlatlarning tarixiy tajribasiga tayangan holda yaratilgandir.



Huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini aholi ongiga singdirish ishlarini doimiy olib borish lozimdir. Shuningdek, yoshlarni qonunlarga itoatkorlik ruhida tarbiyalash, maktab davridan ularda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish eng muhim masalalardan biri bo'lib turibdi, fuqarolarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirish uchun albatta birinchi navbatda Konstitutsiyada belgilangan normalarni bilishdan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida, shunday satrlar mavjud:

- O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi;

- Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.

Demak, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat bilan qarashni shakllantirish Konstitutsiyada ham belgilab qo'yilgan. Mustaqillik qomusi

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilinganligiga 31 yil to'lmoqda.

“Konstitutsiya”, deganda nimani tushunamiz? Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni hisoblanadi. Konstitutsiya davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o'zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Sharq va G'arb, Janub va Shimolning 97 ta mamlakati to'plagan ilg'or konstitutsiyaviy tajribani hisobga olib yaratilgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini tayyorlash, muhokama etish, qabul qilish va uning amal qilishi yo'lidagi 10 ta huquqiy qadam eng muhim tarixiy voqealar sifatida sanab o'tish mumkin.

birinchi huquqiy qadam – o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi, ikkinchi huquqiy qadam – Prezidentlik instituti ta'sis etilishi va yangi davlat ramzlarini tayyorlash bo'yicha komissiya tuzilishi bilan bog'liqligi, uchinchi huquqiy qadam –“Mustaqillik deklaratsiyasi”ning e'lon qilinishi, to'rtinchi huquqiy qadam – Konstitutsiyaviy komissiyaning tashkil etilishi, beshinchi huquqiy qadam – Birinchi Prezidentimizning Hindistonga 1991 yilgi



tashrifi bilan chambarchas bog‘liqligi, oltinchi huquqiy qadam – Davlat mustaqilligining e‘lon qilinishi, yettinchi huquqiy qadam – 1991 yil 29 dekabrda Prezident saylovi va Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi referendumning o‘tkazilishi, sakkizinchi huquqiy qadam – birinchi Konstitutsiya loyihasining ilk bor matbuotda umumxalq muhokamasi uchun e‘lon qilinishi, to‘qqizinchi huquqiy qadam – Konstitutsiya loyihasining ikkinchi marta matbuotda umumxalq muhokamasi uchun e‘lon qilinishi, o‘ninchi huquqiy qadam – Konstitutsiya loyihasining qabul qilinishi bo‘lganligi alohida ta’kidlash joiz.

Ana shunday mashaqqatli yo‘l natijasida shakllantirilgan Konstitutsiyamiz qabul qilingan sana – 8 dekabrni mana qatorasiga 31 yil xalqimiz munosib bayram sifatida kutib oladi.

Konstitutsiyamizdan xalqimizning uzoq o‘tmish davrlardan buyon shakllanib kelayotgan milliy tafakkuri, muqaddas qadriyatlari o‘z aksini topgan, xalqimiz ko‘nglida ustuvor bo‘lgan adolat, haqiqat, imon, olijanobliq bag‘rikenglik mardlik kabi ulug‘ xislatlar o‘rin olgan, albatta.

Konstitutsiyaviy komissiya tomonidan Konstitutsiyaning g‘oyaviy mag‘zi, ya‘ni konsepsiyasi ustida ish boshlab yuborildi. Natijada, 1992-yil bahorida Konstitutsiya loyihasining 149 ta moddadan iborat yangi taxriri ishlab chiqildi va u 1992-yil 26-sentabrda umumxalq muhokamasi uchun matbuotda e‘lon qilindi. Konstitutsiya loyihasining umumxalq muhokamasi nihoyatda keng ko‘lamli bo‘lib, yuksak ijodiy ko‘tarinkilik va ishchanlik kayfiyatida o‘tdi.

U jamiyatimizda chinakam demokratiya qaror topishining yorqin namoyishi bo‘ldi. O‘z ruhi va mazmuni jihatidan muhokama davlat va jamiyat hayotining o‘ta muhim masalalari bo‘yicha butun xalqning umumiy suhbatiga aylanib koldi. Loyiha qizg‘in hamda manfaatli muhokamasi xalqimizning o‘zi mustaqil O‘zbekiston Asosiy Qonunining bevosita ijodkori bo‘lganligini ko‘rsatdi. Qariyb ikki oy davom etgan umumxalq muhokamasidan so‘ng bildirilgan taklif va mulohazalar umumlashirildi va loyiha ushbu taklif va mulohazalar asosida qayta tuzatilib, 1992-yil 21-noyabrda muhokamani davom ettirish uchun ikkinchi marotaba matbuotda e‘lon qilindi.

Konstitutsiya loyihasining umumxalq muhokamasi O‘zbekiston xalqining irodasini bevosita aniqlash, shuningdeq muhokama davomida to‘plangan boy materiallarni har tomonlama chuqur o‘rganish va umumlashirish, uni davlatning



mujassam Asosiy Qonuni sifatida ifodalash imkonini berdi. Asosiy Qomusimiz mustaqilligimizning mevasi, mahsuli sifatida dunyoga keldi.

1992-yil 8-dekabrda o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida muqaddima, 6 bo'lim, 26 bob, 128 moddadan iborat O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Konstitutsiya qabul qilingan kun 8-dekabr mamlakatimizda umumxalq bayrami sifatida dam olish kuni, deb e'lon qilindi.

Respublikamizda davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko'zlab, konstitutsiya hamda uning asosida qabul qilingan qonun-qoidalar vakolat berilgan idoralar tomonidan amalga oshirilishligi, jamiyat va davlat hayotning muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etilishi, respublikada demokratiya umuminsoniy tamoyillarga asoslanishini, ularga ko'ra inson, uning hayoti erkinligi, sha'ni, qadr-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi, O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiya va qonunlarning so'zsiz tan olinishi kabi munosabatlar o'z aksini topgan. Shuning uchun ham eng oliy qadriyat inson, uning hayoti, qadr-qimmat to'g'risidagi tamoyil Konstitutsiya darajasida mustahkamlab qo'yilgan. Konstitutsiyamizda fuqarolarimizni nafaqat O'zbekiston hududida, balki uning tashqarisida ham huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatish, ularning yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqi ekanligi, hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emasligi, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega ekanligi, mulkdor bo'lish, mehnat qilish, dam olish, bilim olishligi kafolatlangan.

Konstitutsiyamiz o'zining tub mohiyati falsafasi, g'oyasiga ko'ra yangi hujjat bo'lib, unda jamiki dunyoviy ne'matlar orasida eng ulug'i-inson degan fikr ilgari surildi.

Konstitutsiyamizda davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etilishini kafolatlaydi.

Konstitutsiya jamiyatimiz hayotining barcha yo'nalishlarini kompleks tartibga solish hamda mamlakatimizni demokratik rivojlantirish yo'lida eng muhim huquqiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Konstitutsiyaga kiritilgan yangi normalar barcha sohalarni taraqqiy ettirishga, shu jumladan, davlat hokimiyatining yanada samarali tashkil qilinishiga yordam beradi.



O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovozi berish orqali qabul qilindi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga 27 ta yangi modda kiritilib, moddalar soni 128 tadan 155 taga oshdi. Konstitutsiyamizning amaldagi 275 ta normasi 434 taga ko'paydi, ya'ni amaldagi Konstitutsiya 65 foizga yangilandi.

O'zbekistonda so'nggi yillarga qadar davlat byudjeti ochiqligi va uning ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish haqida gap-so'z bo'lishi ham mumkin emas edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev amalga oshirgan islohotlar natijasida byudjet ochiqligini ta'minlashga qaratilgan amaliy ishlar qilindi. Bir qator hujjatlar qabul qilindi. Fuqarolar nafaqat davlat byudjeti ustidan nazorat o'rnatmoqda, balki mablag'larni sarflashda ham ishtirok etmoqda.

Yangilangan Konstitutsiyaning 148-moddasida O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetini shakllantirish hamda ijro etish tartib-taomillari ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida amalga oshirilishi, shuningdek fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi kabi yangi norma bilan huquqiy mustahkamlandi.

Konstitutsiyaga kiritilayotgan ushbu modda odamlar byudjet qanday shakllanishi, qanday sarflanishi ustidan nazorat o'rnatish olishlariga xizmat qiladi. Bu nimasi bilan muhim?

Ko'pchilik odamlarda davlat yoki mahalliy byudjetlar qanday shakllanishi haqida umumiy tasavvur ham yo'q. "Davlatning puli" deb ataladigan ushbu mablag'lar aslida xalqning o'zi to'lagan soliqlar evaziga yig'ilgan pullardir. Tabiiyki, xalq o'z puli qanday va qayerga sarflanayotgani ustidan nazorat qilishga haqqi bor. Kiritilgan ushbu modda aynan mana shu huquqni kafolatlaydi.

Mahallada mavjud bo'lgan muammolarni hal etish bo'yicha ayrim murojaatlarga tegishli mansabdor shaxslar tomonidan "rejaga kiritildi, moliyalashtirish bo'lsa bajaramiz" degan javoblar berilishi hech kimga sir emas. Ushbu javoblarni olgan fuqarolar mahalladagi muammolar yechimini yillab kutib turardi. Shunday holatlarni keskin ravishda oldini olish maqsadida yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga byudjetga oid alohida yangi modda kiritildi. Eng avvalo, davlat byudjetini shakllantirish hamda ijro etish tartib-taomillari ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida amalga oshirilishi belgilandi. Xususan, Davlat byudjeti va davlat maqsadli jamg'armalari byudjetlari, soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlari loyihalari, Davlat byudjeti va davlat maqsadli





jamg'armalari byudjetlari ijrosi to'g'risidagi hisobotlar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining xulosalarini joylashtirishni nazarda tutuvchi "Ochiq byudjet" axborot portali ishga tushirildi.

Ochiq byudjet – bu fuqarolarning turli darajadagi byudjetlar to'g'risida tushunishlari uchun mavjud bo'lgan ma'lumotlarni shakllantirishga qaratilgan davlat siyosati.

Alohida qayd etish joizki, fuqarolarning byudjet jarayonida ishtirok etish tartibi ham paydo bo'ldi. Ya'ni tashabbusli byudjet – aholining tashabbuslarini hisobga olgan holda byudjet mablag'larining muayyan bir qismini sarflash bo'yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlar qabul qilish hamda qabul qilingan qarorlarning amalga oshirilishini kuzatish amaliyoti joriy etildi.

Ushbu amaliyot orqali aholi o'zini qiynayotgan muammolar, shu jumladan mahalladagi muammolar (yo'llar, bolalar maydonchalar va boshqa shu kabi muammolarga yechib bo'lib kelmoqda.) byudjetga kiritish va ularni tezlik bilan hal qilish imkoni yaratildi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2020.
2. Davlat tili haqida (yangi tahriri). O'zbekiston Respublikasining Qonuni.– T.: O'zbekiston, 1997.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – T.: Sharq, 1997.
4. Ta'lim to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O'zbekiston,
5. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016.
6. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.–T.:O'zbekiston, 2017.



## ONA TILINI O'QITISH JARAYONIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH TAMOYILLARI

---

*Xaydarova Xurshidaxon Shukurjonovna*  
*Dang'ara tumani 1-sonli kasb-hunar maktabi,*  
*ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan, ya'ni yoshlarning ma'naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini shakllantirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalash kabi bilimlarni olish muammolarini yoritishga, ona tili darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlariga bag'ishlangan. Maqola bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ madaniyatini shakllantirishda so'zning o'rnini va ahamiyati haqida bo'lib samimiylik, ravon nutq va kommunikatsiya ta'lim jarayonini tashkil etishning asosiy bo'g'ini hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** kommunikatsiya, kommunikativ madaniyat, kommunikativ kompetensiya, nutqiy muloqot, ravon nutq, samimiylik, pedagogik mahorat.

O'qituvchi kasbiy faoliyati davomida nutqidagi so'z qudratini takomillashtirib boradi. U o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali so'z boyligini go'zal, ravon, ifodali, ta'sirchan bo'lishiga intiladi. Zero, go'zal va ta'sirchan so'zlay bilish ham san'at. Bu san'atdan bebahra bo'lgan o'qituvchining kasbiy mahorati shakllanmaydi. Qaysi fanni o'qitishdan qat'iy nazar, o'qituvchining asosiy quroli so'z boyligidir, u so'z qudrati asosida kommunikativ qobiliyatini namoyish etadi. Pedagogning so'zi va ishi ham bir bo'lishi kerak. So'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazish o'qituvchining madaniy saviyasida va o'qituvchi muloqotida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, insonning "aql-zakovati, fikr-tuyg'ulari, bilimi va madaniyat saviyasi, tafakkuri ma'lum darajada so'zda ifoda etiladi."<sup>1</sup>

Muomala madaniyatida so'z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi" (Aziz Yunusov). So'z bilan og'zaki ta'sir o'tkazishni amalda o'z pedagogik faoliyatida qo'llovchi o'qituvchi o'z hissiyotlarini, ijodiy ta'sirlanishini boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi va o'z his-tuyg'ularini faqat ta'lim-tarbiyaviy maqsadni amalga oshirish

---

<sup>1</sup> Til va adabiyot ta'limi ( O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligining ilmiy metodik jurnali). 2008 yil 1-son. 3-6 b



uchun ifodalashi hamda o'quvchi qalbini noo'rin so'zlar bilan jarohatlab qo'ymasligi, so'zlarni aniq ifodalashda pedagogik takt normalaridan chiqib ketmasligi lozim. O'qituvchining imo-ishoralari va yuz harakatlari so'z bilan og'zaki ta'sir qilishni kuchaytiradi. Yuz harakatlari va imo-ishoralar nutqda ovozning balandpastligi bilan mos kelishi kerak. Ogohlantiruvchi so'zlar, notiqlik san'ati asosida ta'sir etish, vazifani ijro etishga undovchi buyruqlar, ta'qiqlangan iboralarni ishlatmaslik, hazil orqali fikrini anglatish, o'quvchining erkin mulohazalarini ma'qullash yoki nojo'ya harakatlari uchun ayblash so'zning og'zaki ta'sir etuvchi komponentlaridir.<sup>2</sup> So'z bilan imo-ishoraning va yuz harakatlarining birligi ma'lum qilinayotgan axborot hajmdorligi va ta'sirchanligini kuchaytirishi lozim. Yangi pedagogik texnologiyalarga bag'ishlangan adabiyotlar va maqolalarda bir qator oqitish usullari haqida soz yuritilmoqda. Bu usullar innovatsion metodlar sifatida taqdim etilmoqda. Shulardan ona tili darslarida bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan qo'llanishi mumkin bolgan ayrim metodlar xususida so'z yuritimiz.

**1. Modulli talim texnologiyasi.** Bu o'quvchilarda darslik, ilmiy-ommabop va qo'shimcha adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalari, ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantirish maqsadida o'tkaziladi. Modulli ta'lim texnologiyasining o'ziga xos jihati o'rganilayotgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning mustaqil va ijodiy ishlariga imkon beradigan modulli dastur tuzishdir.

**2. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi,** uning asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini va faqat birgalikda bajarish emas, balki o'quvchilarni hamkorlikda o'qishga orgatadi, ular o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam va fikr almashinishi vujudga keltirish.

**3. Muammoli ta'lim texnologiyasi.** Muammoli vaziyat yaratish, savollar qo'yish, masalalar va topshiriqlarni taklif qilish, muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan muhokamani uyushtirish va xulosalar to'g'riligini tasdiqlashdir.

**4. Interfaol metod texnologiyasi.** O'quvchilarning ijodkorligiga tayanish, darsda erkin bahs-munozara sharoitini tug'dirish. Buning uchun sinf kichik guruhlarga bo'linadi va dars davomida shu guruhlar bilan ishlanadi.

**5. Didaktik oyinlar texnologiyasi.** Dars jarayonida turli didaktik o'yinlarni qo'llash va ular orqali darsda jonlanish, faol harakat va qiziqish uyg'otish.

**6. Sinov darslari.** Yangi pedagogik texnologiya asosida dars o'tish shakllari va usullarini o'zgartirib, ularni xilma-xil qilib, oqituvchi oquvchini oquv jarayonining

---

<sup>2</sup> Xoliqov- Pedagogik Mahorat - Toshkent «Iqtisod-Moliya» 2011 7. Umumiy psixologiya darslik - F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova Nizomiy nomidagi TDPU. Toshkent – 2010



faol qatnashchisiga aylantiradi. O'qituvchi va o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati bu darsni interfaol darsga aylantiradi. O'qitishning yangi interfaol shakllari – ta'lim-tarbiya masalalarini unumli yechishga, o'quvchilarning bilish faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlarini takomillashtirish yo'llaridan biri.<sup>3</sup> Xorijiy davlatlar tajribasida sinovdan o'tgan bu metod ya'ni interfaol metodga ko'ra darslar bir necha bosqichga bo'linadi: Ular chaqiriq, aqliy hujum, anglash, fikrlash kabi bosqichlardir.

1. Chaqiriq bosqichi. Bu bosqichda o'quvchilarni faollashtirish, mavzuning mazmun – mohiyatiga kirib borish, uni his etish, anglab yetish jarayoniga tayyorlash kabi maqsadlar ko'zda tutiladi. Bunda o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob berish jarayonida o'quvchilar o'zaro fikr almashadi.

2. Aqliy hujum bosqichi. Bu usul darsning boshlanishida yoki istalgan joyida qo'llanishi mumkin bo'lib, u muamoni o'z g'oyalari, fikrlarini aytish yo'li bilan hal qilishdan iborat. Masalan, o'qituvchi sinf taxtasiga til so'zini yozadi va o'quvchilardan “Ushbu so'z sizlarda qanday tassavvur hosil qildi yoki shu so'zni yana qaday talqin qilsa bo'ladi?” – deb so'raydi. O'qituvchi o'quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni sinf taxtasiga quyidagi tartibda yozib borishi mumkin: O'quvchilarning fikrlari noto'g'ri deb topilmasligi lozim aksincha, o'qituvchi iloji boricha o'quvchilarga yordam berishi noto'g'ri fikr aytib qo'yishdan cho'chimaslikka da'vat qilishi, oxirida esa bildirilgan fikrlarning har birini o'qituvchi tahlil qilib berishi kerak. Sinf dan tashqari o'qish darslarini tashkil etishda, o'quvchiga o'qiladigan materiallarni bir hafta oldin tavsiya etsa, o'quvchi dam oladigan shanba, yakshanba kunlarida bekor qolmaydi.<sup>4</sup> Albatta, bunda ota-ona nazorati o'ta muhim.

Har qanday sharoitda o'qituvchi o'quvchilar bilan sinfda uchrashishga maxsus hozirlik ko'rishi lozim. O'qituvchining nutqi darsda hamisha o'quvchilarga qaratilgan bo'ladi. O'qituvchi yangi saboqni tushuntirayotgan, o'quvchining javobini tahlil qilayotgan yoki tanqid qilayotgan bo'lsa ham, uning nutqi hamisha o'zining ichki kuchi, ishonchi, o'zi gapirayotgan narsaga qiziqqanligi bilan ajralib turadi. Fikrning ifodasi o'quvchilar uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi. O'qituvchining bayoni o'quvchilar fikri va diqqatini maksimal darajada

---

<sup>3</sup> B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. T-2017

<sup>4</sup> Zebo Qosimova – Ta'lim texnologiyalari (pedagogik mahorat) o'quv-qo'llanma. Toshkent – 2013



faollashtirishga qaratiladi: o'qituvchi o'quvchilar oldida savollar qo'yib, ularni asta-sekin to'g'ri javob berishga undaydi, o'quvchining diqqatini kuchaytiradi hamda fikrini faollashtiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Zebo Qosimova – Ta'lim texnologiyalari (pedagogik mahorat) o'quv-qo'llanma. Toshkent – 2013
2. B.X.Xodjayev. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. T-2017
3. Mirxodjaeva Dilorom Botirovnaning «O'qituvchi kasbiy faoliyatini insonparvarlashtirish o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning omili sifatida»– Pedagogika Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya
4. Xoliqov- Pedagogik Mahorat - Toshkent «Iqtisod-Moliya» 2011 7. Umumiy psixologiya darslik - F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova Nizomiy nomidagi TDPU. Toshkent – 2010
5. Til va adabiyot ta'limi ( O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligining ilmiy metodik jurnali). 2008 yil 1-son. 3-6 b
6. Xalq Ta'limi jurnali 2015 yil 5- son. 36 b
7. Til va adabiyot ta'limi 2019 yil 1- son 16 b



## YANGILANGAN KONSTITUTSIYADA YOSHLARGA BERILGAN YANGI IMKONIYATLAR

---

*O'rinova Gulmira Yunusaliyevna*

*1-son kasb-hunar maktabi huquq fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Bugungi yoshlar kechagi yoshlar emas. Bugungi yoshlarning aqliy rivojlanishi, bilim darajasi juda yuqori. Ular bilim o'lyapti, kitob o'qiyapti, islohotlarimizning kuzatuvchisi emas, balki bevosita ishtirokchisi bo'lishyapti. Yoshlar biror huquqi buzilsa, bee'tibor bo'lmayapti, o'z haq-huquqlarini talab qilayapti. Ularning siyosiy-huquqiy madaniyati kundan-kunga oshib bormoqda. Bu esa ijobiy baholanadi. Shu nuqtai nazardan yoshlarimiz har jabhada faol va tashabbuskor ekanligi quvonarli. Ushbu maqolada ham yangilangan O'zbekistonimizda yangilangan Konstitutsiyamizning yosh avlodga bergan yangi imkoniyatlari haqida aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** shaxsiy daxldorlik, yaxlit tizim, huquqiy madaniyat, siyosiy plyuralizm, yoshlar minbari.

*Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat.*

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning  
BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan*

Har bir rivojlangan davlatning Konstitutsiyasi o'sha davlatning pasporti deya e'tirof etiladi. Mamlakatimizda joriy yilda o'ta muhim siyosiy tadbirlar muvaffaqiyatli o'tkazilib, umumxalq ovozi bilan yangi tahrirdagi Bosh qomus qabul qilindi. Bu jarayonda aholi, asosan yoshlar orasida Konstitutsiyaviy qonun loyihasini targ'ib-tashviq qilgan vaqtimizda yoshlarning o'zlaridan ko'plab takliflar tushdi. Xususan, loyiha yuzasidan 227 mingdan ortiq takliflar tushgan bo'lsa, ularning 60 foizga yaqini bevosita yoshlar tomonidan berildi. Chunki Konstitutsiyada yoshlar huquqlari o'z ifodasini topdi, ma'lum ma'noda ularning jamiyatdagi o'rnini aks ettiruvchi asosiy qonundir.

Hududlarda yurib, yoshlarimizning fikr va takliflarini o'rgandik. Ular Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo'yicha, uning har bir moddasi bo'yicha o'z



munosabatini, takliflarini berishgani jamiyatda huquqiy madaniyat, siyosiy plyuralizm rivojlanayotganidan darak beradi.

Birgina misol sifatida Qomusimizda alohida bir bob “Oila, bolalar va yoshlar” deb nomlangani alohida e’tiborga molik. Buni tarixiy bob deyish mumkin. Bu bobni taklif qilgan ham aynan yoshlarning o‘zlari. Aslida har bir bob yoshlar uchun, yoshlarning manfaatlari uchun xizmat qiladi. Ushbu bobdagi moddalarda yoshlarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishi, ta’lim-tarbiya olishga oid huquqlari mustahkamlab qo‘yilgani yurtimizda yoshlarga bo‘lgan e’tibordan darak. Qolaversa, yoshlarning so‘zi, fikri, qarashlari Konstitutsiyamizda o‘z ifodasini topgani bugun mamlakatimizda ortga qaytmas darajadagi islohotlarning tadrijiy natijasini ko‘rsatadi.

— Darhaqiqat, Konstitutsiyamizning “Oila, bolalar va yoshlar” deb nomlangan bobi haqida to‘xtaladingiz. Ushbu bobdagi 79-moddaga ko‘ra, davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag‘batlantiradi.

— 79-modda haqiqatan yoshlar moddasi deyish mumkin. Chunki yoshlarimizning siyosiy huquqi bo‘ladimi, ekologik, iqtisodiy yoki ta’lim olish kabi ko‘plab huquqlari ayni shu moddada muhrlab qo‘yildi.

Davlatimiz rahbari 2017 yilda BMT Bosh assambleyasining sessiyasida Yoshlar huquqlari bo‘yicha xalqaro konvensiyani qabul qilish tashabbusini ilgari surgan edi. Bu, avvalambor, Prezidentimiz dunyo yoshlarini o‘ylagani hamda O‘zbekiston yoshlarini qo‘llab-quvvatlaganining ifodasi bo‘ldi.

Yoshlar huquqlari Konstitutsiyada alohida moddalarda mustahkamlab qo‘yilgani yurtimiz yoshlari davlat tomonidan himoya qilinishidan dalolat beradi. Yoshlar o‘z huquqlaridan samarali foydalanishmoqda. Masalan, yosh tarbirkorlarni oladigan bo‘lsak, ularning ulushi so‘nggi 7 yilda 3 baravardan 6 baravargacha ko‘paygani va bu raqam yildan-yilga ortayotganini ko‘rishimiz mumkin.

Bundan tashqari, biz ta’lim olyapmiz. Bu bilan bitta huquqimiz ta’minlanyapti. Ertaga oila quramiz — uy-joy olish huquqlarimiz, shu bilan birga, bandlik huquqlarimiz kafolatlanadi. Bugun Oliy Majlis palatalari huzurida Yoshlar parlamenti instituti faoliyat ko‘rsatyapti. Bu bizning siyosiy jarayonlardagi faolligimiz hamda siyosiy-huquqiy madaniyatimiz oshishiga xizmat qiladi. Yoshlar komissiyasi, siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan hamkorlikda yoshlarning muammolarini ko‘taryapmiz, qonunchilikka takliflar bera olyapmiz. Bugun



mahalladan boshlab vazirliklargacha yoshlarning huquqlarini ta'minlaydigan yaxlit tizim yaratildi.

Yoshlarning huquqlari Konstitutsiyaviy darajada kafolatlandi. Endi nima masala qoldi desangiz, endi oldimizda Konstitutsiyamizning ijrosini ta'minlash masalasi turibdi. Konstitutsiya kuni faqat bayram emas, bu sarhisob. Ya'ni, yil davomida konstitutsiyaviy huquqlar, inson huquqlarini ta'minlash, inson qadrini yuksaltirish borasidagi ishlarni amalga oshirishimiz lozim. Mazkur jarayonlarda yoshlarning ham faol ishtirok etayotgani, ularning o'z o'rni borligi quvonarli, albatta.

Birgina O'zLiDePni oladigan bo'lsak, bugun 1 million 300 mingdan ortiq a'zolarimizning 60 foizini yoshlar tashkil etadi. Yoshlar partiyalarimizga ishonch bildiriyapti, o'zining muammolari bilan partiyaga murojaat qilyapti. Yoshlar parlamenti va partiyamiz hamkorligida "Yoshlar minbari" degan platforma tashkil qilinib, bu platforma asosida yoshlarning Mamlakatda yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratib berish borasida mustahkam huquqiy baza yaratilgan va bu tizim zamon talablariga hamohang ravishda takomillashtirib borilmoqda. Xususan, bugungacha parlament tomonidan yoshlarga oid 40 dan ziyod qonun hujjatlari qabul qilingan bo'lib, 30 dan ortiq xaqlaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilingan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ayni davrda insoniyat tarixidagi eng ko'p yoshlar qatlami bilan yashayotganimizni inobatga olgan holda BMT minbarida Yoshlar huquqlari to'g'risidagi BMT konvensiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilgani ham xalqaro hamjamiyat tomonidan iliq qarshilandi. O'zbekiston rahbari bunga asos qilib, bugun dunyo miqyosida yoshlarning soni ikki milliarddan ortib ketgani, xaqlaro terrorizm va ekstremizm shiddat bilan o'sib borayotgan bir paytda yoshlarga himoya zarurligini muhim omillar sifatida asoslab berdi.

Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016-yil 14-sentabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Binobarin, aholisining yarmidan ko'prog'i yoshlardan iborat bo'lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o'z qat'iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo'lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg'ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O'zbekistonni dunyoning eng





rivojlangan davlatlari safidan o‘rin olishining muhim omili ekanini mamlakat rahbari va hukumat yaxshi anglaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi //O‘n ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o‘n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan. – T.: O‘zbekiston, 1992. – 48 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Halq so‘zi” gazetasi, 22 dekabr 2017 yil.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102b.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi // Tuzuvchilar: Sh. Qurbonov, H. Saidov, R.Ahliddinov. – T.: Sharq NMAK. 1999. – 148 b.
5. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat-engilmas kuch. –T.: Ma‘naviyat, 2008, 171 b
6. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Bola ma‘naviyatini tarbiyalash /Tuzuvchilar: J.Fozilov, R.Sultonov, H.Saidov. – T.: “Ma‘rifat-Madadkor”, 2000. – 7-19-b.
7. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi //Bola ma‘naviyatini tarbiyalash /Tuzuvchilar: J.Fozilov, R.Sultonov, H.Saidov. – T.: “Ma‘rifat-Madadkor”, 2000. – 20-55-b.
8. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O‘zbekiston, 2000. – 80 b.
9. Abdurahobov U. Shaxs (Komil inson haqida). – T.: Vatan, 1996. – 20 b.
10. Норқўзиева, Дилрабо Шералиевна. "Таълим тизимида юзага келадиган низолар шахс ижтимоий–психофизиологик меъёрдан оғишининг кўриниши сифатида." *Academic research in educational sciences* 4.ТМА Conference (2023): 537-541.
11. Норқўзиева, Д. "Мақтаб ўқувчилари ўртасида юзага келадиган низоларни олдини олиш–конструктив хулқ самарадорлигининг омили сифатида." *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании* I (2023).
12. Норқўзиева, Д. Ш. "Мақтаб ўқувчиларида ўқув мотивациясини шакллантириш муаммо сифатида." *Academic research in educational sciences* 3.NUU Conference 2 (2022): 851-855.



## YOSH AVLODGA TIKUVCHILIK SANOATINI YO'LGA QO'YISH CHORA-TADBIRLARINI O'QITISH

*Hamdamova Matluba G'aniyevna*

*1-son kasb-hunar maktabi maxsus fan o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tikuv sanoatidagi tadbirkorlikda muvaffaqiyatga erishishining asosiy sharti ijodiy yondoshuvlari va imkoniyatlari haqida yozilgan. Tikuv korxonasini ochishdan avval ishlab chiqarish yo'nalishiga qanday e'tibor qaratilishi darkor ekanligi yoritilib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** dizaynerlik, tovarlar assortimenti, tijorat tuzilmasi, eksklyuziv mahsulotlar, sog'lom raqobat, maishiy xizmatlar, oilaviy korxonalar, tekstil.

Bugungi kunda tikuv sanoatidagi tadbirkorlikda muvaffaqiyatga erishishining asosiy sharti ijodiy yondoshuvdir. Dizaynerlik liboslari saloni, yumshoq qo'g'irchoqlar ishlab chiqarish, maxsus kiyim tayyorlash sexi – xullas, imkoniyatlarni faqat tasavvur olamigina cheklashi mumkin. Tikuv korxonasini ochishdan avval ishlab chiqarish yo'nalishiga aniqlik kiritib olish darkor:

- liboslar – maishiy, maxsus, kundalik, bolalar uchun, kattalar uchun;
- matoli o'yinchoqlar;
- uy uchun tekstil mahsulotlari;
- boshqa aksessuarlar.

So'ngra ishlab chiqarish xajmi rejalashtiriladi, shu tanlangan raqam biznesga kiritiladigan mablag' miqdori, bino katta-kichikligi va ishchilar sonini belgilab beradi. Ish yo'nalishini tanlagandan keyin tijorat tuzilmasi MChJ, YaTT yoki oilaviy korxonalar tarzida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Biznes turi qanday tanlanadi? Kichik korxonalar uchun ishlab chiqarishning o'rtacha xajmi kuniga – 25–50 ta mahsulotni tashkil etadi. Kichik xajmdagi tikuv biznesi kapitali cheklangan hamda eksklyuziv mahsulotlarni bozordagi o'rtacha mahsulotlar narxidan biroz balandroq bahoda sotish niyatidagilarga to'g'ri keladi. Kuniga 150–200 ta mahsulot tikuvchi kattaroq sex mahsulotlarning ulgurji sotilishi hisobiga tezroq foydaga kiradi. Sex ochishdan oldin bozorni, haridorlarning ta'bini va cho'ntagini yaxshilab o'rganib chiqish zarur qilmaydi. Bozorda haridorlar siz ishlab chiqarishni mo'ljallayotgan tovarni taxminan qanchadan harid qilishini surishtiring. O'z resurslaringiz va haridorlarning talablaridan kelib chiqqan holda tovarlar assortimentini kengaytirib borasiz.

Xonadonda tikuvchilik atelyesini tashkil etish ancha oson. Buning uchun zamonaviy tikuv uskunalari olish va asosan reklamaga urg'u berish darkor. Flayerlar tarqatish, sayt yoki ijtimoiy tarmoqlarda mahsulotlarni targ'ib qilish yaxshi yordam berishi mumkin. Kichik atelye garchi qisqa fursat ichida o'zini qoplasa-da,



katta daromad keltirmaydi. Bunday holatda daromadni oshirish uchun yuqori narxlar bo'yicha eksklyuziv liboslarni ishlab chiqarishga e'tibor qaratish joiz.

Tikuv korxonasi texnologiyalari. Tikuv mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

- modelni loyihalashtirish;
- modelni konstruktsiyalar va matoga ko'chirish;
- matoni bichish;
- tikish, ishlov berish, bezash.

Modellashtirish bilan modelyer shug'ullanadi. U bo'lg'usi mahsulotning eskizini yaratadi, rangini, mato turini tanlaydi. Konstruktor eskizni chizmaga tushirib, detallar xajmi va material o'lchovini hisoblaydi. Andoza va texnik hujjatlashtirishni ham u amalga oshiradi. Atel'ye yoki kichikroq tikuv sexida model'yer va konstruktor ishini bichiqchi bajaradi – mijoz bilan muloqot qiladi, o'lchamlarni oladi, detallarni bichadi. So'ngra tayyor holatga keltirib tikish uchun tikuvchilarga topshiradi.

Binoga qo'yiladigan talablar. Yuqorida aytganimizdek, sex joylashadigan maydon ishlab chiqariladigan tovarlarning soniga bog'liq. Masalan, kuniga 100ta tovar ishlab chiqarish uchun 60–70 kv.m. maydon zarur. Binoni ijaraga olishdan avval yong'in va sanitariya nazorat organlari vakillarini chaqirib, faoliyat yuritishga ruxsat olish kerak. Bino yong'in xavfsizligi normalariga javob berishi uchun uni yong'in signalizatsiyasi, avariya chiqishi va o'to'chirgich bilan jihozlash darkor.

Uskunalar. Bino ijarasi bilan bog'liq muammolar o'z yechimini topganidan keyin uskunalar ro'yxatini tuzish kerak:

- tikuv mashinasi;
- overlak;
- matoni bichish uchun mashina;
- maishiy dazmol;
- bug' generatori;
- bichish uchun qaychi;
- tugma solish apparati;
- stollar va stellajlar, manekenlar;
- boshqa harajhatlar – ip, tikuvchilik qaychilari, bo'r va boshqalar.

Zarur xodimlari. Tikuv biznesi muvaffaqiyatining yana bir kaliti – xodimlar malakasi. Kichik ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishda:

- 1-2 nafar bichg'ich;
- 2-3 nafar tikuvchi;
- farrosh;
- buyurtmalar qabul qiluvchi kerak bo'ladi.

Keyinchalik modelerlar, dizaynerlar, tor doirada ixtisoslashgan tikuvchilarni ishga qabul qilish mumkin.

Muhim maslahatlar.



•Mato ishlab chiqaruvchilar bazasini o'rganing. Agar mato ishlab chiqaruvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatangiz, chiqimlarni sezilarli ravishda kamaytirishga erisha olasiz.

•Qanday mahsulotga talab katta bo'lishini aniqlash uchun birvarakayiga bir nechta yo'nalishda ish boshlang. Oqshom liboslari, matolardan suvenirilar, maxsus kiyim-bosh, turli aksessualar chiqarishga urinib ko'ring.

•Tovarlarning ilk partiyasini bozorgan chiqargandan keyin talabni yana bir bor o'rganib chiqing. Shundan kelib chiqish asosiy yo'nalishni qanday tovarlar egallashi bo'yicha qaror qabul qilsangiz bo'ladi.

•Bozordagi talab bo'yicha ham, taklif bo'yicha ham aniq tasavvurga ega bo'lishingiz talab etiladi. Raqobatchilar do'konlariga kiring: ular qanday mahsulotlar ishlab chiqarishmoqda va narxlari qanday? Ammo raqiblarning g'oyalarini o'g'irlamang, haridorlarni jalb etish uchun o'z yondoshuvingizni, mahsulotlaringizning o'ziga xos jihatini o'ylab toping.

Vaqt chaqalarni pulga aylantiradi, pullarni esa boylikka. Biznes yo'lga qo'yilmasidan "tagiga olib" ketmasligi uchun uning o'z-o'zini qoplash muddatini taxminan hisoblab chiqing. Bunda harajatlar va daromadlar hisobidan kelib chiqish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

